

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 1-iyul chorshanba №26(9611)



2025-yil 21-dekabr kuni mahoratli adib Xayriddin Sulton qalamiga mansub “Yaldo kechasi” romanining taqdimoti o‘tkazildi. Kun nihoyasida ommaviy axborot vositalarida ushbu kitobning suratini ko‘rdim: muqovadagi O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ibrohim G‘afurovning (1998–2001-yillari ustoz bosh muharrirligidagi “Milliy tiklanish” gazetasida ishlaganimdan doim faxrlanib yuraman) **“O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi tarzida yozdi; buyuk Qodiriy nomidan, Qodiriy bo‘lib yozdi...** degan gapi asarni o‘qish ishtiyoqimni kuchaytirdi. Ammo... turmush tashvishlari bilan bo‘lib, oradan birmuncha vaqt o‘tib ketdi.

Kitobni o‘qishdan oldin negadir Abdulla Qodiriy xonadonini ziyorat etgim keldi...

O'qituvchi kundaligidan

Bola qalbi oq qog'oz...

Yangi ta'mirlatgan ko'cha devorimizda yozuvlar paydo bo'ldi. Rosa xafa bo'ldim, xuddi yuzimga dog' tushganday...

Kimning ishi ekanini ham taxmin qildim.

Oradan 2-3 kun o'tib qo'shnim ham shu ko'chadan o'tib-qaytuvchi bolalarning nomlarini aytib, daraxtlariga osilib, sindirib ketayotganlaridan nolib qoldi. Ertasiga darsdan so'ng o'quvchilarim bilan o'g'rilik, birovning haqqi, o'zgalar mehnatini qadrlash haqida suhbat o'tkazdim...

Ahmad Yassaviy haqidagi rivoyatni aytib berdim...

Taxminimdagi va qo'shnim nomma-nom keltirgan ismlarni atay o'zgartirib, boshqa ismlarni aytdim. Aybdor o'quvchilarning yuz-ko'zlaridagi o'zgarishlar, bir-birlariga zimdan qarab qo'yishayotganini bilsam-da, bilmagalikka oldim...

Xulosa qilishni, kechirim so'rashini o'zlariga havola qildim.

Ertasiga darvoza oldidan xat topib oldim. "Ustoz men kechiri duvolga men yozganidim. ...jon". O'quvchim qanday yozgan bo'lsa, shunday keltirdim. Ismini esa yozmadim.

Qilmish qidirmish

Maktabga soy oralab ketamiz.

Yozda tuproq, yog'in-sochinda loy, suv kechib qatnaymiz. O'n-o'n besh chog'li bola men bilan birga maqsad sari sabr va bardosh bilan harakatda desam mubolag'a bo'lmaydi...

Shu soyga ayrim noshud kimsalar uylaridan chiqqan siniq idishlar, bo'sh shisha idishlar, xullasi kalom, bolasining pampersigacha qoplab tashlab ketishadi. Yo'l-yo'lakay shogirdlarimga bu ishlarning sabab va oqibatlarini, tabiatga, o'zimiz, kelajak avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini uqtirib kelaman.

Nima bo'ldi-yu bir kuni soydagi shishalarni kimlardir erinmay, bitta qoldirmay sindirib chiqibdi. Eh, attang, bu yerdan qorong'ida o'tganlar, ko'zi ojizlar nima qiladi endi deb biroz asabiylashdim. O'quvchilarimga ehtiyot bo'lishlarini qayta-qayta tayinladim. Yo'limizdan chiqqanlarini terib chetroqqa chiqarib tashladik.

Qattiq yomg'irdan so'ng soyga sel kelib, shisha siniqlarini tekislab ko'zga ko'rinmaydigan qilib ketdi. 2-3 kundan so'ng boshqa bir sinfda o'qiydigan, shu yo'ldan qatnaydigan bir bola ko'rinmay qoldi.

"Ustoz, uni-chi oyog'iga ishshani teskari bo'p turgani kirib, jirtib jubaribti. O'zi shu bola akasi bilan hamma ishshalardi sindirib chiqqan- nakan, menga o'zi aytuvdi... Agar ustozingga aysang, kallangdi joraman duvdida menga" dedi yelkasini ojizgina qisib o'quvchim...

Qilmish qidirmish deganlari shu-da.

Qush uyasida ko'rganini qiladi...

Bir o'quvchim bor, judayam so'zamol, katta odamni bir urib kichraytirib qo'yganday. Allambalo gaplar, ajoyib fikrlar shu boladan chiqadi. Xullas, u bilan aslo zerikmaysiz.

Ammo aksariyat tengdoshlari, ba'zida katta yoshli bolalar ham undan shikoyat qilib kelishadi. Janjalning sababini so'rasam, og'zi shaloq, onadan so'kadi deyishadi.

Shuncha tartibga chaqirsam ham bu holat davom etavergach, noiloj otasini chaqirdim. Vaziyatni tushuntirgach, otasi o'g'liga, "bolam, nega bunday qilyapsan, uyat gaplarni gapirma, so'kma, so'kish gunoh" dedi.

Bola yalt etib otasiga qaradi va "Dada, sizam ayamdi so'kasiz-ku. Sizam gunoh ish qilyapsizakanda har kuni..." dedi.

Izohga hojat qolmadi...

Havas

Kecha o'quvchilarim o'rtasida matematikadan olimpiada o'tkazdim. O'quv yili sarhisobi, ustamaga tayyorgarlik, ham o'quvchilarimga, ham menga manfaatli.

O'ziga ishongan, bilimdon o'quvchilarim talaygina, duolarimda ham ko'z oldimga keladiganlari bor, bo'lmasa hammasini birday yaxshi ko'raman.

Olimpiada tugab, natijalar e'lon qilindi. G'oliblar taqdirlandi.

Yerga ursa ko'kka sakraydigan, tegirmondan bir qop un bilan chiqadigan o'quvchim... bolada baribir, "Ustoz, menam Jasurga o'xshab darsdan so'ng tayyorlansam bo'larkanda, bekorga ketip qoppandaa, endi dadamga nima diymanaaa" deb rosa xafa bo'ldi.

Dadasi oldidagi mas'uliyatni, burchini his qilgan jajji bolajonim o'zimning, hali hammasi oldinda, shu tuyg'uni tuyganliging o'zi g'oliblik!!!

Sen albatta g'alaba qozonasan, bolam! Men senga ishonaman!

O'roloy MARDIYEVA,
Qo'shrabot tumanidagi
35-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Sog'liqni saqlash vazirligi diqqatiga!



Zayniddin Aptarov Yakkasaroy tumanidagi 58-oilaviy poliklinikada oddiy vrach bo'lib ishlaydi. Shu yerda ishlab turib avval nomzodlik, keyin doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Shu bilan birga, Zayniddin publitsistik maqolalari bilan gazeta va jurnallarda ham faol. Uning she'riyat, publitsistika va tibbiyotga oid 40 dan ortiq kitobi nashrdan chiqqan. Bundan tashqari, 50 dan ortiq maqolasi xalqaro skopus jurnallarida chop etilgan (qayd etish joizki, hozir bunday jurnallarda 4-5 ta olim hashar qilib, falon pul sarflab bitta maqolani arang chiqarmoqdalar). Bugun men bu xokisor do'stimizning hayot va ijod yo'liga nazar tashlab, qalbidan o'tgan tuyg'ularni qog'ozga tushirmoqqa zarurat sezdim.

Inson hayotida shunday mehnatlar borki, ularni bir kun, bir yil yoki bir mukofot bilan o'lchab bo'lmaydi. Ular butun umrga teng. Ilm ana shunday taqdirdir – u kasb emas, hayot tarzidir. Olim esa oddiy mutaxassis emas, u kelajakni bugundan yaratayotgan inson hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yer sharining turli nuqtalarida – Dubai, Rim, Qohira, Milan kabi jahon ilm markazlarida bo'lib o'tgan nufuzli chempionatlar, Olimpiya o'yinlari va qit'alararo tanlovlarda O'zbekiston nomi bir necha bor yuksak minbarlardan yangradi. Buning sababchisi – samarqandlik jarroh, tibbiyot

xonga Toshkent shahridan hovli uy sovg'a qilingan). Zayniddinda esa bu narsa yo'q.

Tomirlar shikastlanishini jarrohlik yo'li bilan davolash kabi ilmiy ishlar – bu oddiy tadqiqot emas. Bu inson hayoti bilan yuzma-yuz turish demakdir. Bir muvaffaqiyat ortida yuzlab operatsiyalar, minglab tahlillar, sanoqsiz ilmiy shubhalar va qayta-qayta boshlangan izlanishlar yotadi. Shu mehnat xalqaro maydonda oltin medal bilan baholandi. Ammo savol yana qaytib keladi: o'z yurtida bu mehnat qay darajada qadrlanmoqda?

Tarixga nazar tashlasak, buyuk olimlarning qis-

Ilm taqdiri haqida og'riqli mulohaza

fanlari doktori, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Zayniddin Normandir. Zayniddin 30 dan ortiq Nobel mukofoti sovrindorlari hakamlilik qilgan, 2023- va 2026-yillarda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqalarda olti marta, shu jumladan to'rt marta fan bo'yicha jahon chempioni va ikki marta olimpiada chempioni sifatida oltin medal sohibi bo'ldi.

Olim taklif etgan davolash usuli dunyoning 20 dan ortiq yirik ilmiy tibbiyot muassasalarida amaliyotda qo'llanilib, yuzlab bemorlarning shifo topishlariga sabab bo'ldi. Uning ilmiy asarlari AQSH, Buyuk Britaniya, Serbiya, Gretsiya, Polsha, Fransiya, Ispaniya, Indoneziya, Rossiya, Belarus, Tojikiston, Qozog'iston kabi mamlakatlarning tibbiyot sohasida eng taniqli olimlari tomonidan e'tirof etildi.

2026-yili Italiyaning Milan shahrida bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadada Zayniddin Normaning sa'y-harakati evaziga, ya'ni uning oltin medali hisobiga O'zbekiston 17-o'rinni oldi. Vaholanki, kumush va bronza medallari sohiblari ko'pchilikni tashkil etgan, ancha nomdor davlatlar bo'lmish – Fransiya va Turkiya 11 tadan, Ispaniya 7 ta, Iordaniya 6 ta sovrindori bilan O'zbekistondan keyingi o'rinlarni egalladilar. Albatta, bu – olamshumul xizmatlarning butun dunyo miqyosida e'tirof etilishidir. Lekin shu o'rinda bir og'riqli savol paydo bo'ladi. Nega ba'zan dunyo olqishlagan yutuqlar o'z yurtida sukut bilan qarshi olinadi? Nega minglab olimlar ishtirok etgan musobaqada g'olib bo'lish shov-shuvga aylanmaydi? Nega inson umrini saqlab qolishga qaratilgan tibbiy kashfiyotlar milliy g'urur sifatida tilga olinmaydi? Nega ilmdagi yutuqlar bayramga emas, oddiy voqeaga aylanib qolmoqda? Bular bir insonga emas – butun jamiyat vijdoniga berilgan og'riqli savollardir.

Ilmning eng og'ir qismi – uni yaratish emas, balki uning qadrini ko'ra oladigan muhit topishdir. Olim laboratoriyada yolg'iz ishlaydi. Uning raqibi – vaqt. Uning dushmani – xato. Uning quroli – bilim. U tunni kunga ulaydi, oromni mas'uliyatga almashtiradi. Ko'pincha shaxsiy hayotdan voz kechadi. Chunki u bir kishini emas, minglab insonlar taqdirini o'ylaydi.

Men Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutida dunyo miqyosida nom chiqargan, taniqli, yosh iqtisodchi olim Raufxon Salaxojayev bilan birga ishlaganman. Darhaqiqat, Raufxon yorqin iqtidor sohibi. U o'z vaqtida umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda dunyo bo'yicha eng ko'p maqola chop ettirgan yuzta yosh olimlar safidan joy olgan edi. Faqat u erishgan yutuqlar natijalarini hukumat darajasiga, davlat rahbari darajasiga olib chiqadigan insonlar topildi va shu bois uning mehnati munosib taqdirlandi(Mamlakat prezidenti tomonidan Rauf-

mati ko'p hollarda o'xshash bo'lgan. Ularni avval dunyo tan olgan, keyin esa vatan. Chunki yaqinlik ba'zan qadrni pasaytiradi. Inson uzoqdagini buyuk, yaqindagini oddiy hol deb qabul qilishga moyil. Havas taraqqiyotni tug'diradi. Hasad esa taraqqiyotdan qo'rqadi. Ba'zan jamiyat katta yutuqni quvonch bilan emas, sukut bilan qarshi oladi. Go'yoki bir insonning muvaffaqiyati boshqalarga soya solib qo'yishidan xavotir bordek. Lekin ilm raqobat emas – merosdir. Bir olimning yutug'i boshqalar imkoniyatini kengaytiradi. Dunyo ilmni strategik kuch deb biladi. Rivojlangan davlatlar olimni milliy boylik sifatida asraydi. Chunki ular yaxshi biladi: neft tugaydi, boylik kamayadi, ammo bilim millatni abadiy saqlab qoladi. Xalqaro musobaqalarda O'zbekiston nomi 14-, 15-o'rinlarda qayd etilishi, bu oddiy statistika emas – bu mamlakat intellektual qudratining namoyishidir.

Ammo eng katta savol shunda: biz ilmni kela-jak sarmoyasi deb qabul qilyapmizmi yoki shaxsiy tashabbus sifatida qoldirayapmizmi? Olim uchun eng katta mukofot – medal emas. Uning mehnati kerak ekanini his qilishdir. Jamiyatda bir e'tirof, yoshlar qalbida paydo bo'lgan bir havas – ba'zan oltin medaldan ham qimmatlidir. Chunki e'tirof – yangi olimlarni tug'diradi. Agar jamiyat ilmni rag'batlantirsa, olim mehnatini qadrlasa, bu narsa noyob iqtidorlar o'z salohiyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Aks holda iste'dod sukut ichida so'nadi. Bugun savol juda oddiy, ammo juda og'ir: dunyo tan olgan olimni nega o'z yurti baland ovoz bilan aytmaydi? Balkim biz hali ilm qahramonlarini tanishga o'rganmagan-dirmiz? Balkim biz hali sport g'oliblariga, sahna yulduzlariga qoyil qolayotirmiz-u, ilm g'alabasi-ning qiymatini anglay olmayotgandirmiz?

Ammo bir haqiqat o'zgarmaydi: millatni mashhur qiladigan – olimlardir. Chunki stadiondagi quvonch, sahnadagi olqish bir kunlik, ilmiy kashfiyot natijasidan bahra olish esa esa asrlar osha davom etadi.

Shu bois xalqaro maydonlarda qo'lga kiritilgan ushbu g'alabalar – bir insonning emas, butun O'zbekistonning ma'naviy yutug'idir. Mamlakatimizda inson salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot sohasini rivojlantirish masalalariga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining mas'ullari dunyo olqishlagan olimni e'tibordan chetda qoldirmaydi, deb umid bildiramiz

Va tarix albatta o'z hukmini chiqaradi. Zero, dunyo e'tirof etgan ilmni sukut bilan qarshi olish – olimning emas, jamiyatning yo'qotishidir.

Sayidfozil ZOKIROV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor



Inklyuziv ta'lim

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini qanday tashkil etamiz?



Muvaffaqiyatli ta'limning asosiy omillaridan biri maktab va oilaning uyg'un hamkorligidir. Bu, ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ta'lim jarayoni turli jismoniy, intellektual, hissiy, nutqiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan bolalarning ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'pqirrali jarayon. Bunday bolalar guruhiga jismoniy, aqliy, nutqiy, emotsional-irodaviy yoki rivojlanishida turli cheklovlari bo'lgan bolalar kiradi. Ularning jamiyatga moslashuvi, muloqotga kirishishi va ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi ko'p jihatdan ota-onaning to'g'ri yondashuviga bog'liq. Boisi, oila bola uchun birinchi va eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bola dastlabki muloqot, xulq-atvor va ijtimoiy me'yorlarni aynan oilada o'rganadi. Shu sababli, ota-onalar bolaning individual xususiyatlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini chuqur o'rganib, unga mos muhit yaratishlari zarur.

Metodik jihatdan muhim yondashuvlardan biri – individual yondashuvdir. Har bir bolaning rivojlanish darajasi va ehtiyoji turlicha bo'lgani sababli, ta'lim va tarbiya jarayoni ham shunga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Ota-onalar, o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog (defektolog) kabi mutaxassislar bilan hamkorlikda bolaning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi muhim jihat – muloqot ko'nikmasini rivojlantirishdir. Ota-ona bola bilan muntazam, sodda va tushunarli tarzda suhbatlashishi, uni muloqotga jalb qilishi zarur. Ko'z bilan aloqa, imo-ishora, mimika va oddiy savol-javoblar orqali bola asta-sekin muloqot qilishni o'rganadi. Bu jarayonda bolani rag'batlantirish uning motivatsiyasini oshiradi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarur. Salomlashish, minnatdorlik bildirish, navbat kutish, o'yin qoidalariga amal qilish kabi oddiy ijtimoiy xatti-harakatlar avvalo oilada o'rgatiladi, keyinchalik esa bog'cha, maktab va jamiyat muhitida mustahkamlanadi. Bu jarayonda roli o'yinlar, vizual material va takroriy mashg'ulotlar samarali hisoblanadi.

Barqaror va oldindan rejalashtirilgan kun tartibi bola o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi, bezovtalikni kamaytiradi va yangi vaziyatlarga moslashishni osonlashtiradi. Ota-onaning ijobiy munosabati va sabr-toqati bolaning ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik hamda o'qituvchining ijtimoiylashuv jarayonidagi roli. Inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u faqat maktab doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham davom etadi. Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish va ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash uchun ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar – o'qituvchi, ota-ona hamda qo'llab-quvvatlovchi mutaxassislar o'rtasida tizimli va uzluksiz hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik. Bolani samarali ijtimoiylashtirish maktab va oila o'rtasidagi yaqin hamkorliksiz amalga oshmaydi. Bu hamkorlik bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Birinchiidan, ota-onalar bilan muntazam aloqani yo'lga qo'yish zarur. O'qituvchi ota-onalarni bolaning ta'lim jarayoni, uning yutuqlari va duch kelayotgan qiyinchiliklari bilan doimiy ravishda tanishtirib boradi. Masalan, o'qituvchi haftalik uchrashuv yoki telefon orqali bolaning darsdagi faolligi, tengdoshlari bilan munosabati haqida ma'lumot beradi. Agar bola dars vaqtida savollarga javob berishda qiynalayotgan bo'lsa, bu holat ota-ona bilan muhokama qilinib, uyda qo'shimcha mashqlar tashkil etish tavsiya etiladi. Shu tarzda muntazam muloqot uy va maktabdagi harakatlarni uyg'unlashtiradi, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining izchilligini ta'minlaydi.

Ikkinchiidan, o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog (defektolog) va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Bunday hamkorlik bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash, ta'lim strategiyasini moslashtirish va samarali usullarni tanlash imkonini beradi. Masalan, maxsus pedagog bolaning tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish muammosini aniqlasa, o'qituvchi dars jarayonida unga moslashtirilgan topshiriqlar beradi. Psixolog esa boladagi tortinchoqlik yoki muloqotdan qochish holatini kamaytirish uchun maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi. Shu orqali o'qituvchi metodik yordam oladi, bola esa har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

Uchinchiidan, uy va maktab sharoitlarining uyg'unligini ta'minlash muhimdir. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun bir xil yondashuvning davomiyligi katta ahamiyatga ega. Masalan, agar maktabda bola bilan ijobiy rag'batlantirish usuli qo'llanilsa (ya'ni to'g'ri javob uchun maqtov yoki kichik mukofot berilsa), ota-onalar ham uyda shu usulni davom ettirishlari kerak. Yoki maktabda belgilangan kun tartibi uyda ham qisman takrorlansa, bola o'zini yanada xotirjam va ishonchli his qiladi. O'qituvchi, ota-ona va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik qanchalik samarali tashkil etilsa, bolaning ijtimoiylashuvi shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Bu jarayonda o'zaro muloqot, tushunish va birgalikdagi harakatlar asosiy omil hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlashda ota-onalarga quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

1. Avvalo, bola bilan muntazam va samimiy muloqot qiling. Har kuni kamida bir necha daqiqa farzandingiz bilan suhbatlashib, uning kayfiyati, qiziqishlari va muammolariga e'tibor qaring. Masalan, "Bugun maktabda nima qiziqarli bo'ldi?" kabi oddiy savollar orqali uning fikr bildirishiga imkon yarating.

2. Farzandingizning o'qituvchisi bilan doimiy aloqada bo'ling. Maktabdagi yutuq va qiyinchiliklar haqida ma'lumot olib boring va uyda qanday yordam berish mumkinligini aniqlashtiring. Masalan, agar bola darsda diqqatini jamlashda qiynalayotgan bo'lsa, uyda qisqa va qiziqarli mashg'ulotlar tashkil eting.

3. Mutaxassislar tavsiyalariga amal qiling. O'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog(defektolog) tomonidan berilgan mashqlarni uy sharoitida ham davom ettirish muhimdir. Bu mashg'ulotlar muntazam bo'lsa, bola rivojlanishida ijobiy natijalar tezroq ko'zga tashlanadi.

Uy va maktabdagi talablarni bir xil tutishga harakat qiling. Masalan, agar maktabda bola navbat kutishga o'rgatilayotgan bo'lsa, uyda ham o'yin yoki kundalik vaziyatlarda shu qoidani mustahkamlang. Bu bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini tezroq shakllantiradi.

4. Bolani rag'batlantirishni unutmang. Har bir kichik yutug'ini ham e'tiborsiz qoldirmang. Masalan, bola mustaqil ravishda salomlashsa yoki topshiriqni bajarsa, uni maqtash yoki kichik mukofot berish orqali ijobiy xulq-atvorini mustahkamlang.

5. Kun tartibini aniq va barqaror tashkil eting. Bola uchun oldindan ma'lum bo'lgan tartib xavfsizlik hissinini beradi. Masalan, dars qilish, o'yin va dam olish vaqtlari doimiy bo'lsa, bola o'zini ishonchliroq his qiladi.

6. Bolani jamiyatga jalb qiling. Uni tengdoshlari bilan o'ynashga, turli to'garaklar va tadbirlarda ishtirok etishga undang. Masalan, oddiy o'yin maydonchasiga chiqish ham bola uchun muhim ijtimoiy tajriba bo'lishi mumkin.

Eng asosiysi, sabrli va mehribon bo'ling. Bola darhol natija ko'rsatmasligi mumkin, ammo doimiy qo'llab-quvvatlash va ijobiy munosabat uning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ota-onaning faol ishtiroki, o'qituvchi va mutaxassislar bilan hamkorligi hamda uy sharoitida yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi muhit bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga samarali yordam beradi.

Shoista AHMEDOVA,

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, inklyuziv ta'limi bo'limi metodisti

Mutaxassis minbari

Bugungi shiddatli zamonda ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar ham o'zgarib bormoqda. Ilgari bilim berish asosiy maqsad bo'lgan bo'lsa, bugun eng muhim masala – mustaqil fikrlay oladigan, hayotga moslasha oladigan va ijodiy yondashuvga ega shaxsni tarbiyalashdan iborat. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy o'qitish usullari bu talablarni to'liq qondirishga doim ham qodir emas. Demak, ta'limga yangi yondashuv, yangi ruh zarur.

Ana shunday yangilanishlar markazida neyropedagogika turadi. Bu yo'nalish pedagogika va nevrologiya tutashgan nuqtada shakllangan bo'lib, inson miyasining ishlash jarayonlarini o'rganish orqali ta'limni samarali tashkil etishni ko'zda tutadi. Neyropedagogika bizga bir muhim haqiqatni anglatadi: har bir o'quvchining fikrlash tarzi, qabul qilish qobiliyati va o'rganish usuli o'ziga xos. Shu bois barchaga bir xil yondashuv orqali yuqori natijaga erishib bo'lmaydi.

Kelajak o'qituvchisi: neyropedagogika – ta'limning yangi nafasi

Zamonaviy ta'limda neyropedagogikaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki u o'quvchining qanday o'rganishi, ma'lumotni qanday qabul qilishi va uni qanchalik uzoq saqlab qolishini ilmiy jihatdan tushuntirib beradi. Bu esa o'qituvchiga darsni shunchaki tushuntirish emas, balki uni o'quvchi ongiga to'g'ri yetkazish yo'llarini topish imkonini beradi.

Kelajak o'qituvchisi obrazi ham aynan shu nuqtada qayta shakllanmoqda. Endi u faqat bilim manbayi emas, balki o'quvchining ichki dunyosiga yo'l topa oladigan, uning qobiliyatini his qiladigan va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan shaxs bo'lishi lozim. Chunki haqiqiy ta'lim – bu faqat axborot berish emas, balki insonni anglash jarayonidir.

Bugun ta'lim jarayonida individual yondashuvga asoslangan neyrotexnologiyalarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan loyihalarning asosiy maqsadi – neyrotexnologiyalar orqali har bir o'quvchining bilish imkoniyatlarini ochish, uning o'qish jarayonini yengillashtirish va samaradorligini oshirishdan iborat. Bu esa ta'limni ommaviy emas, balki shaxsga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi.

Neyropedagogik yondashuv dars mazmunini ham, shaklini ham o'zgartiradi. Endi dars – bu faqat ma'lumot berish emas, balki fikrni uyg'otish, diqqatni jamlash va xotirani faollashtirish jarayoniga aylanadi. Vizual vositalar, interaktiv usullar, jonli muloqot va emotsional ta'sir – bularning barchasi bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki inson miyasi ko'rgan, eshitgan va his qilgan ma'lumotni yaxshiroq qabul qiladi.

Ayniqsa, bugungi axborot asrida bolalarning diqqati tez chalg'iydi. Telefon, internet va turli axborot oqimlari ularning fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Neyropedagogika esa aynan shu muammolarga ilmiy yechim taklif etadi: diqqatni boshqarish, xotirani rivojlantirish va tafakkurni faollashtirishga qaratilgan usullarni joriy etadi.

Bu yondashuvning yana bir muhim jihati – insonning emotsional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishidir. Neyropedagogika orqali o'quvchilarda empatiya, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa nafaqat ta'lim, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qadimda ustozlar "shogird qalbiga yo'l topish"ni eng yuksak mahorat deb bilgan. Bugungi fan esa bu qarashni ilmiy asoslab bermoqda. Chunki bilim faqat aql bilan emas, qalb va his-tuyg'ular uyg'unligida o'zlashtiriladi. Neyropedagogika esa ana shu uyg'unlikni ta'minlovchi muhim ko'prikdir.

Neyropedagogika – bu kelajak ta'limining yo'nalishini belgilab beradigan ilmiy asosdir. U ta'limni insonga yaqinlashtiradi, uni mazmunan boyitadi va samaradorligini oshiradi. Eng muhimi esa – har bir o'quvchiga o'z imkoniyatlarini ochish va o'z yo'lini topish imkonini beradi.

Zero, haqiqiy ta'lim – bu ma'lumot emas, balki ma'no. Va shu ma'noga yetaklovchi yo'llardan biri – neyropedagogikadir.

Muqaddas RAHMONOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor



Fizika – hayotning sirli qudrati



Fizika – bu tabiat qonunlarini o‘rganuvchi fan. U nafaqat zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, texnologiya va sanoatning rivojlanishini ta‘minlaydi, balki hayotimizning har bir jabhasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Kundalik hayotda biz ko‘p holatlarda fizikaning qudrati va ta‘sirini his qilmaymiz, lekin uning qonunlari orqali nur, harakat, energiya va materiya bilan bog‘liq barcha jarayonlar yuz beradi.

Har kuni elektr chirog‘ini yoqamiz, telefon va kompyuterdan foydalanamiz, avtomobilda yuramiz yoki suvni isitamiz. Bu jarayonlarning barchasi fizik qonuniyatlarga asoslangan. Masalan, elektr energiyasining paydo bo‘lishi elektromagnit qonunlar orqali amalga oshiriladi. Avtomobil harakati esa mexanika qonunlari, kuch va energiyaning o‘zaro ta‘siri natijasidir. Hatto oddiy bir muzning erishi termodinamika va molekular harakati haqida so‘zlaydi.

Fizikaning qudrati innovatsiyalar va

texnologiya rivojiga ham asos bo‘ladi. Kompyuter, smartfon, telekommunikatsiya tarmoqlari, internet va sun‘iy intellekt – barchasi fizikaning asosiy qonunlariga tayanadi. Kosmos tadqiqotlari, sun‘iy yo‘ldoshlar, yadroviy energiya va nanotexnologiyalar ham fizikaning ilmiy asoslarisiz amalga oshmaydi. Demak, fizika faqat nazariy fan emas, balki inson hayotini yaxshilash va osonlashtirishning muhim qudratidir.

Ma‘rifatli avlodni tarbiyalashda fizika fanining o‘rni beqiyos. Yoshlar fizikani

o‘rganish orqali nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladi, balki tahlil qilish, hisoblash va muammolarni yechish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Muammoli ta‘lim usuli laboratoriya ishlari va tajribalar orqali talabalarining tadqiqotlar o‘tkazishga qiziqishi ortishiga yordam beradi. Bu esa ular ke-lajakdagi ilmiy va texnologiya sohaslarida muvaffaqiyatga erishishiga olib keladi.

Fizikada ma‘lum bir kashfiyot yaratil-gandan so‘ng, uni ishlab chiqarishga tat-biq etish bilan shug‘ullanuvchi mutaxas-sislar maydonga chiqadi va insoniyatning og‘irini yengil qiluvchi uskunalar yara-tiladi. Atom va yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar atom energiyasidan foyda-lanish imkoniyatlarini berdi. Yarimo‘tkaz-gichlarning kashf qilinishi elektron his-oblash texnikasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Kosmosning o‘zlashtirilishi dunyoning istalgan chek-kasidan ma‘lumotlarni uzatish, lazer nurla-

rining kashf qilinishi esa undan texnikada va sog‘liqni saqlash sohaslarida foydala-nish imkonini berdi. Umuman aytganda, fizikaning inson hayotidagi o‘rni nihoyat-da beqiyos.

Fizika hayotimizning har bir qadami-da ko‘rinadigan amaliy va sirli qudratdir. U bizga tabiatni tushunish, texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish, hayo-tni osonlashtirish va rivojlantirish im-konini beradi. Fizika faqat formulalar va nazariya emas, balki hayotdagi voqealarni tushunishga yordam beruvchi fan. Yosh-lar uchun fanni qiziqarli qilishda amaliy tajribalar, texnologiyalar, projektli o‘qi-tish va qo‘llab-quvvatlovchi muhit muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘llar yoshlarda fan-ga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va ularni zamonaviy olimlar sifatida shakllantirish-ga yordam beradi.

Shu sababli, fizikani o‘rganish va uning qonunlariga e‘tibor qaratish har bir inson uchun muhimdir.

Abdumalik GAIBOV,
Toshkent davlat texnika universiteti
professori

Ta‘kid

Islohotlar ilmiy tadqiqotlarsiz natija bermaydi



Zamonaviy ta‘lim tizimida tadqiqotlar faqat o‘quvchilar bilimni tekshirish emas, balki ta‘lim sifatini yaxshilash va sohadagi islohotlarni ilmiy asosda amalga oshirish vositasidir. Xususan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti) tomonidan tashkil etiladigan PISA tadqiqotlari davlatlar uchun ta‘lim tizimini baholash va takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi.

Ta‘limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar, avvalo, o‘qitish metodlarini takomillashtirish orqali ta‘lim islohotlarini amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi. Masalan, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadi, o‘quvchilar real hayotiy muammolar ustida ishlaganda bilimni chuqurroq va mustahkam o‘zlashtiradi. Jon Hetti tomonidan 800 dan ortiq tadqiqot asosida o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, interaktiv va faol o‘qitish metodlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ta‘lim islohotlarida an‘anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish muhimligini isbotlaydi.

Tadqiqotlar ta‘lim islohotlarining samaradorligini aniqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali qaysi metodlar samarali ekani, qaysi yondashuvlar esa kutilgan natijani bermayotganini aniqlash mumkin. Natijada ta‘lim tizimida asosli qarorlar qabul qilinadi, resurslar to‘g‘ri taqsimlanadi va o‘quv jarayoni yanada samarali tashkil etiladi. Shuningdek, individual yondashuvga asoslangan tadqiqotlar ham muhim natijalarni ko‘rsatgan. Ta‘lim tadqiqotchisi Andreas Shlyaxer ta‘kidlaganidek, ta‘lim sifati har bir o‘quvchining ehtiyojiga moslashgan yondashuv bilan bevosita bog‘liq. PISA tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quvchilarning natijalaridagi farqning taxminan 15 foizi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi. Bu esa ta‘limda tenglik va individual yondashuvning ahamiyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy ta‘limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli vositalardan samarali foydalanilgan ta‘lim tizimlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yuqori

bo‘ladi. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqatgina texnologiyaning o‘zi yetarli emas, balki uni to‘g‘ri meto-dika asosida qo‘llash ham muhim.

Baholash tizimini takomillashtirish ham rivojlantiruvchi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishidir. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, formativ baholash usullari qo‘llanilganda o‘quvchilarning natijalari an‘anaviy testlarga nisbatan samaraliroq bo‘ladi. Bu esa bilimni chuqurroq va har tomon-lama baholash imkonini beradi.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, Finlandiya ta‘lim tizimi uzoq yillar davomida yuqori natijalar ko‘rsatib kelgan. Xususan, PISA–2000 tadqiqotida finlandiyalik o‘quvchilar o‘qish savodxonligi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallagan, 2003- va 2006-yillarda esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha yetakchi davlatlar qatorida bo‘lgan. Finlandiyalik tadqiqotchi Pasi Salberg tadqiqotlariga ko‘ra, bu natijalarning asosiy sababi – ta‘limdagi tenglik siyosati va yuqori malakali o‘qituvchilardir. OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, Finlandiyada o‘quvchilar o‘rtasidagi natija farqi OECD o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha past bo‘lib, bu tenglik darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning maktabdagi stress darajasi ko‘plab davlatlarga nisbatan past ekani aniqlangan.

Singapur ham zamonaviy va tizimli ta‘lim modeli bilan ajralib turadi. 2015- va 2018-yillardagi PISA natijalariga ko‘ra, Singapur o‘quvchilari matematika bo‘yicha 564 ball natija ko‘rsatib, dunyoda yuqori o‘rinlardan joy olgan. Li Kuan Yu tomonidan ilgari surilgan “Teach Less, Learn More (Kamroq o‘qi, ko‘proq o‘rgan)” siyosati asosida olib borilgan islohotlar o‘quvchilarning chuqur tushunishiga yo‘naltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, Singapurda o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi juda qat‘iy bo‘lib, faqat eng yaxshi bitiruvchilar pedagog bo‘lish imkoniga ega.

Buyuk Britaniyada ham ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. OECD (2022) ma‘lumotlariga ko‘ra, angliyalik o‘quvchilar matematika bo‘yicha o‘rtacha 492 ball natija ko‘rsatgan bo‘lib, bu OECD o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqoridir. Biroq tadqiqotlarga ko‘ra, yuqori va past ijtimoiy qatlam o‘quvchilari o‘rtasidagi farq taxminan 90 ballni tashkil etadi. Jon Hetti va Andreas Shlyaxer tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu tafovut asosan ijtimoiy omillar va ta‘lim imkoniyatlaridagi tengsizlik bilan bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda, Angliyada ta‘lim tizimini rivojlantirish doirasida o‘qituvchi sifati, maktablarni nazorat

qilish (inspeksiya) tizimi, ijtimoiy yordam dasturlari (masalan, “Pupil Premium”) hamda davlat maktablarini “academy” shakliga o‘tkazish kabi islohotlarning samaradorligi ham ilmiy tadqiqotlar orqali tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ta‘lim islohotlarining muvaffaqiyati ularning qabul qilinishiga emas, balki maktablarda qanday amalga oshirilishi darajasiga bevosita bog‘liq.

Bugun yurtimizda ta‘lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-aprelda qabul qilingan “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ta‘lim sohasida tahliliy va amaliy tadqiqotlar olib borish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta‘lim tizimiga joriy etish vazifalari belgilangan.

Mazkur qaror ta‘lim islohotlarini faqat nazariy darajada emas, balki ilmiy asoslangan tadqiqotlar orqali amaliyotga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa maktablarda olib boriladigan tadqiqotlar faqat nazorat yoki baholash vositasi emas, balki ta‘limni rivojlantirishning muhim mexanizmi ekanligini anglatadi. Tadqiqotlar orqali o‘qitish metodlarini takomillashtirish dars jarayonini samarali tashkil etish va xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Agar ta‘limni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar samarali joriy etilsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Ta‘lim sifati oshadi:

- o‘quvchilar bilimni chuqurroq tushunadi;
- PISA kabi xalqaro tadqiqotlarda natijalar yaxshilanadi.

2. O‘qituvchi roli kuchayadi:

- zamonaviy metodlardan foydalanish ortadi;
- kasbiy rivojlanish tizimi yaxshilanadi.

3. Tenglik ta‘minlanadi:

- barcha hududlarda ta‘lim sifati bir-biriga yaqinlashadi;
- ijtimoiy farqlar kamayadi.

4. Innovatsion ta‘lim shakllanadi:

- raqamli texnologiyalar samarali qo‘llaniladi;
- o‘quvchilar tanqidiy va ijodiy fikrlashni o‘rganadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim islohotlarini samarali amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar orqali aniqlangan muammolar va yechimlar ta‘lim siyosatini takomillashtirish, maktablar faoliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy, raqobatbardosh ta‘lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Yurtimizda ham ushbu yondashuvni keng joriy etish orqali ta‘lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va zamonaviy bilimga ega yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Zuhra SAFAROVA,
Qarshi shahridagi
1-IDUMIning ingliz tili fani o‘qituvchisi



“Yaxlitlik tanqisligi”: zamonaviy talabani ko‘rinmas psixologik muammosi

O‘zingizni taqqoslashingiz kerak bo‘lgan yagona odam – bu o‘tmishdagi o‘zingiz! Siz undan-da yaxshiroq bo‘lishingiz kerak bo‘lgan yagona inson – bu ayni vaqtdagi o‘zingizdir.

Zigmund Freyd

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalari talabalari na faqat bilim olish, balki tez o‘zgarayotgan axborot muhitida o‘z o‘rnini topish, raqobatga dosh berish va shaxsiy hayotini shakllantirish kabi murakkab vazifalarga ham duch kelmoqda. Ilm-fan va texnologiyalar rivojlangani sari inson imkoniyatlari kengaymoqda, ammo ayni paytda ichki barqarorlik va ruhiy yaxlitlik bilan bog‘liq muammolar ham kuchaymoqda. Ana shunday muammolardan biri, zamonaviy psixologiyada “yaxlitlik tanqisligi” deb ataluvchi holatdir.

Bu atama ilmiy adabiyotlarda turlicha ifodalansa ham, uning mazmuni bir nuqtaga borib taqaladi. Ya‘ni, insonning ichki dunyosi, qadriyatlar, his-tuyg‘ulari va tashqi hayoti o‘rtasidagi uyg‘unlikning buzilishi. Oddiy qilib aytganda, inson bir narsani o‘ylab, boshqacha gapirib, yana boshqacha hayot kechira boshlaganda, uning ichki “men”i parchalanadi. Natijada u o‘zini bir butun shaxs sifatida emas, balki turli rollarga bo‘linib ketgan inson sifatida his qiladi.

Boshqacha aytganda, “yaxlitlik tanqisligi” tushunchasi shaxs ichki uyg‘unligining buzilishi, identiklik inqirozi va ma‘naviy parchalanish holatlarini ifodalovchi kompleks psixologik fenomen sifatida talqin qilinadi. Uning nazariy asoslari K.Yung, E.Erikson, K.Rojers va V.Frankl kabi olimlar ishlarida uchraydi.

Zamonaviy talaba nega bu holatga tushib qolmoqda?

Hozirgi talabani hayoti avvalgi o‘tmishdoshlaridan mutlaqo farq qiladi. Ilgari inson asosan oila, kitob va atrof-muhit ta‘sirida shakllangan bo‘lsa, bugungi talaba bir vaqtning o‘zida o‘nlab axborot manbalari ta‘sirida yashamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar, sun‘iy intellekt, onlayn muhit va doimiy taqqoslash psixologiyasi yoshlar ongiga kuchli bosim o‘tkazmoqda.

Talaba auditoriyada bir obrazda, ijtimoiy tarmoqda ikkinchi obrazda, oila davrasida esa mutlaqo boshqa qiyofada namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat asta-sekin ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Inson o‘zining haqiqiy “men”ini yo‘qota boshlaydi. Eng xavfli shundaki, ko‘pchilik buni muammo sifatida anglamaydi ham.

Masalan, ba‘zi talabalar internetda muvaffaqiyatli, baxtli va serg‘ayrat inson obrazini yaratadi. Aslida esa ular ichki tushkunlik, xavotir yoki o‘zidan qoniqmaslik bilan kurashayotgan bo‘ladi. Natijada virtual hayot bilan real hayot o‘rtasidagi katta farq inson psixikasida bosim hosil qiladi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan emotsional charchoq, ma‘naviy bo‘shliq va hatto depressiya holatlariga olib keladi.

“Men kimman?” degan savol nega kuchaymoqda?

Psixologlarning ta‘kidlashicha, inson hayotidagi eng muhim ehtiyojlardan biri, bu shaxsiy identiklikni shakllantirishdir. Ya‘ni inson o‘zining kimligi, hayotdagi maqsadi va qadriyatlarini anglashi kerak. Ammo zamonaviy tezkor muhitda ko‘plab yoshlar tayyor “ideal obrazlar” ta‘sirida yashashni afzal ko‘rmoqda.

Kimdir boylikni, kimdir mashhurlikni, yana kimdir tashqi ko‘rinishni hayotning asosiy mezonini deb qabul qilmoqda. Natijada inson o‘z ichki ehtiyojlariga emas, balki jamiyatdagi sun‘iy standartlarga moslashishga harakat qiladi. Bu esa ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Bugun ko‘plab yoshlarda hamma narsa bor, ammo negadir qoniqish yo‘q. Bu aynan yaxlitlik tanqisligining muhim belgilaridan biri. Chunki inson tashqi yutuqlarga erishishga qaramasdan, ichki ma‘no va ruhiy uyg‘unlikni topa olmayotgan bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar: ilhom manbayimi yoki psixologik bosim?

O‘z o‘rnida ijtimoiy tarmoqlarni ham butunlay salbiy baholash to‘g‘ri emas. Ular bilim olish, muloqot qilish va

imkoniyatlarni kengaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ammo ulardan noto‘g‘ri foydalanish inson psixologiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi ham kundek ravshan.

Ayniqsa, doimiy taqqoslash madaniyati eng xavfli jarayonlardan biridir. Talaba o‘z hayotini boshqalarning idealashtirilgan hayoti bilan solishtira boshlaydi. Kimdir xorijda o‘qiyapti, kimdir biznes qilyapti, yana kimdir mashhur bo‘lib ketyapti. Bu manzaralar insonda “men ortda qolyapman” degan hisni uyg‘otadi.

Vaholanki, ijtimoiy tarmoqlarda aks ettirilayotgan hayot ko‘p hollarda haqiqatning faqat bezatilgan qismi xolos. Ammo inson ongi buni doimo va o‘z vaqtida angalayvermaydi. Natijada o‘zidan norozilik, xavotir va ruhiy bosim ortib boradi.

Dunyo bu muammoga qarshi qanday kurashmoqda?

Finlandiya tajribasi – “Phenomenon-Based Learning”.

Finlandiya ta‘lim tizimida yoshlarni faqat test va baho uchun emas, balki o‘zini anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalash konsepsiyasiga o‘tildi. Ular maktab va universitetlarda jamoaviy muhokamalar, emotsional intellekt, shaxsiy fikrni ifoda qilish, raqamli hayot madaniyati, hayot ma‘nosi haqida mulohaza kabi yo‘nalishlarni ta‘limga kiritdi. Natijada psixologlar talabalarda stress darajasi pasaygani, ijtimoiy ishonch oshgani va “men kimman?” degan savolga aniqroq javob shakllanganini qayd etdilar.

Ushbu mamlakat tajribasi shuni ko‘rsatdiki, faqat bilim berish emas, balki ichki barqarorlik va shaxsiy anglash asosida tarbiyalash yoshlardagi ma‘naviy parchalanishning oldini oladi.

Janubiy Koreya – raqamli charchoqqa qarshi dasturlar.

Janubiy Koreya dunyoda internet va ijtimoiy tarmoqlarga eng ko‘p bog‘langan davlatlardan biri hisoblanadi. Yoshlar o‘rtasida depressiya, ijtimoiy yolg‘izlik, identiklik inqirozi kuchayganidan so‘ng davlat maxsus dasturlarni yo‘lga qo‘ygan. “Digital detox camps.” smartfondan vaqtincha uzilish lagerlari, psixologik rehabilitatsiya markazlari va tabiat terapiyasi kabi dasturlar shular jumlasidandir. Natijada ko‘plab talabalarda xavotir darajasi kamaygan, jonli muloqot ko‘paygan va emotsional barqarorlik tiklangan.

Yaponiya – “Ikigai” falsafasi.

Yapon jamiyatida insonning hayot ma‘nosini topishiga katta e‘tibor beriladi. Shunday yondashuvlardan biri “Ikigai” konsepsiyasi bo‘lib, u insonning sevgan ishi, qobiliyati, jamiyatga foydasi va hayot mazmuni o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadi. Bu yondashuv universitetlarda ham qo‘llaniladi. Masalaning e‘tiborga molik jihati shundaki, yapon psixologlari inson ruhiy barqarorligini tashqi muvaffaqiyatdan ko‘ra ichki ma‘no bilan ko‘proq bog‘laydi.

O‘zbekistonda yoshlar ruhiy barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson qadri, yoshlar manfaati va ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Garchi “yaxlitlik tanqisligi” tushunchasi davlat dasturlarida aynan shu nom bilan qo‘llanilmasa ham, yoshlarning ruhiy salomatligi, ijtimoiy faolligi, ma‘naviy immuniteti va psixologik barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar mazkur muammoning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Avvalo, mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati va “Yoshlar daftari” tizimi yoshlarning ijtimoiy yolg‘izlanib qolishining oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda davlat tomonidan ish-siz yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta‘minlash, ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish va psixologik-ijtimoiy yordam

ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa yoshlarda “men jamiyatga kerakman” degan ijtimoiy ishonch va ichki qadr hissini shakllantirib, ma‘naviy bo‘shliq va ichki parchalanish xavfini kamaytiradi.

Shu bilan birga, oliy ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirishga qaratilgan ishlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta‘lim muassasalarida psixolog lavozimlari faoliyati kengaytirilib, talabalar bilan individual ishlash, stress va depressiya profilaktikasi, psixologik maslahatlar va adaptatsiya treninglariga e‘tibor kuchaydi. Bu kabi yondashuvlar talabalarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, tashqi bosimlarga chidamliligini oshirish hamda o‘zini anglash darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Zero, zamonaviy raqobat muhitida insonning nafaqat intellektual, balki psixologik barqarorligi ham muhim omilga aylanmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan “Besh muhim tashabbus” ham mazkur muammoning profilaktikasi nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega. Sport, san‘at, kitobxonlik, axborot texnologiyalari va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash kabi yo‘nalishlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, ularning ichki dunyosi va ma‘naviy muhitini boyitishga xizmat qilmoqda. Psixologik jihatdan olib qaraganda, ijodiy faoliyat, jamoaviy muhit va jonli muloqot insondagi yolg‘izlik hissi hamda ichki ziddiyatlarni yumshatuvchi muhim omillar hisoblanadi.

Mamlakatda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor ham yoshlarning ruhiy yaxlitligini saqlashda muhim o‘rin tutadi. “Yosh kitobxon” tanlovi, kutubxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish, kitob yarmakalari va turli ma‘naviy-ma‘rifiy loyihalar mutolaa madaniyatini keng ommalashtirishga xizmat qilmoqda. Kitob insonda chuqur fikrlash, tahlil qilish, ichki mulohaza yuritish va emotsional barqarorlik kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa tezkor axborot oqimi va raqamli muhit ta‘sirida shakllanayotgan “parchalangan tafakkur”ning salbiy oqibatlarini yumshatishga yordam beradi.

Yaxlitlikni qanday saqlab qolish mumkin?

Avvalo, inson o‘zini eshitishni o‘rganishi kerak. Zamonaviy dunyoda hamma gapirayapti, ammo kamchilik o‘z ichki ovozi tinglayapti va unga quloq solmoqda. Bu sindrom tuzog‘iga tushib qolmasligi uchun talaba o‘ziga doimiy ravishda quyidagi savollarni berib turishi kerak:

- Men aslida nimani istayman?
- Haqiqiy qadriyatlarim nimalardan iborat?
- Kim uchun yashayapman?
- Hayotimdagi asosiy maqsad nima?

Bu savollar insonni ichki anglash sari yetaklaydi.

Shuningdek, raqamli muhit bilan real hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim. Kitob o‘qish, jonli muloqot, sport, ijod, tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish inson ruhiyatini tiklashga yordam beradi. Eng muhimi, inson o‘zini boshqalar bilan emas, kechagi “o‘zi” bilan taqqoslashni o‘rganishi lozim.

Xulosa

“Yaxlitlik tanqisligi” bu shunchaki psixologik atama emas, bu zamonaviy jamiyatda ko‘plab yoshlar sezmayotgan, ammo ularning hayotiga ta‘sir qilayotgan jiddiy muammodir. Inson tashqi muvaffaqiyat ortidan quvib, ichki dunyosini yo‘qotib qo‘ymasligi kerak.

Chunki haqiqiy muvaffaqiyat faqat diplom, mansab yoki mashhurlik emas. Balki haqiqiy muvaffaqiyat insonning o‘z “men”ini saqlab qolishi, ichki xotirjamlik va ma‘naviy yaxlitlikka erisha olishidir.

Zamonaviy talaba axborot oqimida emas, balki ongli tanlovlar asosida yashashni o‘rgansa, u nafaqat kuchli mutaxassis, balki ma‘naviy yetuk, barqaror ichki muvozanatga ega komil inson sifatida ham shakllanadi.

Kamoliddin JABBOROV,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sinab ko'ring

Sinfxonada kichik mualliflar ijodi

boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida RAFT metodikasi



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvur dunyosi cheksiz, hayotiy qarashlari esa g'oyat tiniq bo'ladi. Biroq dars jarayonida ko'pincha ularga "Erkin mavzuda matn tuzing" yoki "Insho yozing" deb an'anaviy topshiriq berganimizda aksariyat o'quvchilar ko'zida ijodiy quvonch o'miga ikkilanish va xavotirni ko'ramiz. Buning asosiy sababi – bolaga nimani va qanday yozish bo'yicha aniq motivatsiya hamda qiziqarli yo'nalish yetishmasligidir. Xo'sh, bolajonlarning ijodiy fikrlashini qanday uyg'otish mumkin? Ularni majburlamay, o'z ixtiyori va cheksiz hayajon bilan yozishga undaydigan qanday samarali usul bor?

Darslarimda muntazam ravishda qo'llaydigan va har safar kutilganidan ham a'lo natija beradigan interaktiv usullardan biri – RAFT metodikasi haqida o'rtoqlashmoqchiman. Yaqinda o'tgan ochiq darsim misolida ushbu usulning nechog'lik mukammal pedagogik vosita ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

RAFT metodikasi nima?

Ushbu metod o'quvchiga shunchaki quruq mavzu berishdan mutlaqo voz kechib, unga ochiq va aniq ijtimoiy rol, muayyan auditoriya hamda kutilmagan qiziqarli format taqdim etadi. Natijada yozish jarayoni murakkab vazifadan jozibali ijodiy o'yinga aylanadi. Metod nomini tashkil etuvchi inglizcha qisqartma so'zlar ostida quyidagi muhim pedagogik unsurlar yotadi:

R – Role (rol): Men kimman? (o'quvchi matn yozishda o'zini kim yoki nima deb tasavvur qiladi? Masalan: daryo, qush, ona tabiat yoki kekxa chinor).

A – Audience (auditoriya): Men kimga murojaat qilayapman? (Matn kim uchun yozilmoqda? Insonlarga, tengdoshlariga, tuman (shahar) hokimiga).

F – Format (format): Qanday shaklda yozayapman? (Murojaatnoma, xat, ariza-iltimosnoma yoki uyg'otuvchi SMS).

T – Topic (mavzu): Nima haqida yozayapman? (Muammoning tub mohiyati va yechimi).

Ochiq dars senariysidan lavha: Ona tabiatni asraylik!

Ona tili darsida dars mazmunini ekologik tarbiya bilan bog'ladim. Sinf o'quvchilarini to'rtta ijodiy guruhga ajratib, doskaga quyidagi maxsus RAFT jadvalini joylashtirdim:

Guruhlar	R (Rol)	A (Auditoriya)	F (Format)	T (Mavzu)
1-guruh	Daryo	Insonlar	Dardli murojaatnoma	"Meni chiqindilar bilan bulg'amang!"
2-guruh	Kichik qushcha	Tuman (shahar) hokimi	Ariza-iltimosnoma	"Daraxtlarni kesmang, uyimizni buzamang!"
3-guruh	Kekxa chinor	Maktab o'quvchilari	Kundalikdan parcha	"Mening soyamda ulg'aygan bolalar"
4-guruh	Quyosh	Uyquchi bolakay	Uyg'otuvchi SMS-xabar	"Yangi kun keldi, tabiatni uyg'ot!"

Vazifa e'lon qilinishi bilan sinfdagi ruhiy muhit butunlay o'zgardi. Har bir o'quvchi o'z guruhida daryo, qush yoki kekxa daraxt obraziga kirib, chin dildan fikrlay boshladi. Bolalar shunchaki jumlarlar tuzishmadi, balki o'zlari tanlagan obyektlarning qalb og'riqlari, his-tuyg'ularini ich-ichidan o'tkazib qog'ozga tushurishdi.

"Mualliflik kreslosi" va hayajonli daqiqalar

Matnlar yozib tugallangach, darsning eng hayajonli qismi boshlandi. Har bir guruhdan bir nafar vakil sinf markaziga o'rnatilgan "Mualliflik kreslosi"ga o'tirib, o'z ijod mahsulini jozibali nutq bilan o'qib berdi. Ayniqsa,

1-guruh vakilining "Daryo" nomidan insoniyatga yo'llagan dardli murojaati darsda kuzatuvchi bo'lib o'tirgan ustozlarni ham befarq qoldirmadi:

"Aziz insonlar! Men sizga uzoq-uzoq tog'lardan shildirab, musaffo va shirin bo'lib oqib kela-man. Siz yashayotgan zaminga hayot baxsh etaman. Nega mening pokiza bag'rimga selofan va plastik idishlarni tashlayapsiz? Axir men chanqog'ingizni bosaman, ekinlaringizga hayot beraman-ku? Meni asrang, men ham yashashni xohlayman..."

Boshlang'ich sinf o'quvchisining tilidan chiqqan ushbu teran va ta'sirli so'zlar RAFT metodining nafaqat nutq o'stirish, balki bolalar qalbida atrof-muhitga nisbatan yuksak daxldorlik va empatiya (his qilish) tuyg'usini shakllantirishda beqiyos kuchga ega ekanligini isbotladi.

"Mualliflik kreslosi" interaktiv metodi
Guruhdan saylangan faol o'quvchi sinf markazidagi maxsus "Mualliflik kreslosi"da o'tirgan holda o'z ijodiy ishini baland ovozda, ifodali o'qib bermoqda. Butun sinf va kuzatuvchi o'qituvchilar uni diqqat bilan tinglab, qarsaklar bilan olqishlamoqda.

Metodning pedagogik afzalliklari

Amaliy tajribamga tayanib, RAFT metodikasining boshlang'ich sinflardagi quyidagi muhim afzalliklarini

ajratib ko'rsata olaman:

- Empatiya tuyg'usini shakllantiradi:** bola boshqa jonzotlar va tabiat qadrini ich-ichidan his qilib, dunyoga teran ko'z bilan boqishni o'rganadi.
- Kreativ fikrlash va nutq ko'nikmasini o'stiradi:** tayyor qoliplardan qochib, mustaqil va o'ziga xos jumlarlar tuzish orqali so'z boyligi keskin oshadi.
- Darsda to'liq faollikni ta'minlaydi:** har bir o'quvchi o'z qobiliyatidan kelib chiqib guruhda o'z o'rnini topadi, darsda zerikish va charchash kuzatilmaydi.

Ma'muraxon XO'JALIYEVA,
Parkent tumanidagi
24-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi



Boshlang'ich ta'limda beriladigan bilimning shakli va mazmuni nihoyatda muhim. Ayniqsa, ko'pchilik bolalar uchun murakkab tuyuladigan matematika fanini qiziqarli tashkillashtirish o'qituvchi mahoratiga bog'liq. Agar raqamlar she'rga aylansa, masalalar ohang bilan uyg'unlashsa, matematika bola uchun qiyin fan emas, zavq manbayiga aylanadi. Ana shunday o'ziga xos, ta'sirchan va samarali yondashuv she'riy matematikadir.

Raqamlar she'rga aylanganda...

She'riy matematika – bu faqat usul emas, balki ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtiruvchi ijodiy yo'l. Unda bola bir vaqtning o'zida ham tinglovchi, ham mushohadachi, ham izlanuvchiga aylanadi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, buxorolik bolalar shoiri Negmurod Guliyevning matematik mazmundagi she'rlari bolalarni fikrlashga chorlaydi. Jumladan, "Samovar" nomli she'riy masalada murakkab matematik jarayon oddiy hayotiy manzara orqali tabiiy va qiziqarli tarzda ifoda etilgan:

Ellik choynak sig'imli
Idish turar limmo-lim...

...Topping, qancha muddatda
Samovar bo'shab qolar?

Bu misralarda bola faqat raqamlarni ko'ribgina qolmay, harakatni ham his qiladi. Suv oqishini tasavvur qiladi, vaqtini o'lchaydi, natijani kutmay yechimga intiladi. Shu jarayonda u mantiqiy fikrlashni o'rganadi. Shuningdek, "Isbotlang" she'riy topshirig'i orqali o'quvchi sonlar olamiga yanada chuqur kiradi. Tub va murakkab sonlar haqidagi tushunchalar badiiy shaklda berilishi esa bolada qo'rquv emas, qiziqish uyg'otadi. U faqat javob topmaydi, balki isbotlashga harakat qiladi. Bu esa ilmiy fikrlash yo'lida ilk qadamlar bo'lib xizmat qiladi.

"Qanchaga ko'p?" kabi boshqotirmalar o'quvchilarni tahlil qilish, ma'lumotlarni solishtirishga o'rgatadi. Uchburchak va beshburchaklar go'yoki o'zaro raqobatga kirishadi: "Qaysi ko'p? Qanchaga ortiq?" Bu savollar bolani fikrlashga majbur qiladi. "Mo'jizakor son" she'riy masalasida esa bola haqiqiy kashfiyotchiga aylanadi. Sonlar sirli ko'rinadi, lekin shu sirni ochish uning vazifasiga aylanadi. U xato qilsa-da yana urinadi va nihoyat yechimni topadi. Ana shu "topdim!" degan lahza bolaning ishonchini oshiradi. "Dastlabki son" topshirig'i esa bolada teskari fikrlashni, ya'ni natijadan sababga qarab harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

She'riy matematika dars jarayoniga jon baxsh etadi. Unda raqamlar obrazga aylanadi, misollar hayotiy voqeelik bilan bog'lanadi, yechim esa kashfiyot sifatida qabul qilinadi. Bunday darslarda o'quvchi faol ishtirok etadi. U tinglovchi emas, balki hammuallifga aylanadi. Uning fikri, taxmini, izlanishi qadrlanadi. Qolaversa, she'riy matematika bola nutqini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, diqqatini jamlashga o'rgatadi, ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. Eng muhimi, u o'quvchida matematikaga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Faoliyatimda shu kabi matematik she'rlardan foydalanib, ijobiy natijalarga erishib kelayotgan bir pedagog sifatida ularni barcha hamkasblarimga tavsiya qilaman.

Lobar HOJIYEVA,
Vobkent tumanidagi
24-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Dolzarb mavzu

Atrof-muhit barqarorligi va Green HRM: inson resurslarini boshqarishning institutsional modeli va xalqaro tajriba



Insoniyat tabiat bilan hisoblashib yashashi va ishlashi kerakligi – bu nafaqat haqiqat, balki bugungi kunda eng asosiy iqtisodiy va ekologik zaruriyatdir. Tabiat cheksiz resurs emas, balki murakkab va nozik tizimdir. Bugun global iqlim o'zgarishlari, suv taqchilligi va transchegaraviy ekologik xavf-xatarlar sharoitida atrof-muhit barqarorligini ta'minlash har bir davlat va tashkilot oldiga strategik vazifalarni qo'ymoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Bir-lashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yuksak minbarlaridan hamda xalqaro iqlim sammit-laridan(COP) turib ilgari surilayotgan global ekologik tashabbuslar mamlakatimizni yashil taraqqiyot poyde-voriga aylantirmoqda.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasida **“Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik”** rezolyutsi-yasini qabul qilish tashabbusi hamda Orolbo'yi mintaqasi-ni **“Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hudu-di”** deb e'lon qilish borasidagi tarixiy qadamlari xalqaro hamjamiyat tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlan-di. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: *“Iqlim o'zgarishi oqibatlari global tus olgan bugungi kunda barqaror taraqqiyotga faqat umumiy harakatlar va yangicha yon-dashuvlar orqaligina erishish mumkin”*.

Ushbu yuksak maqsadlarga erishishda zamonaviy korxona va tashkilotlarning strategik maqsadlarini bosqichma-bosqich yashillashtirish, eng muhimi, xodim-larning kundalik ish odatlarini ijobiy transformatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ekologik barqa-rorlikka erishish shunchaki tashqi mexanik yoki tex-nologik jarayon emas, balki korxonaning ichki boshqa-ruv madaniyatini boyitish hamda **Green HRM (Yashil inson resurslarini boshqarish) texnologiyalarining institutsional modeli va amaliyoti mexanizmlarini** samarali joriy etishni taqozo etadi.

Xalqaro amaliyot: yetakchi davlatlar tajribasi

Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakat-lari atrof-muhit muhofazasida aynan inson kapitalini boshqarishni institutlashtirish orqali yuksak natijalarga erishmoqda. Tadqiqotlarimiz doirasida ushbu dav-latlarning muvaffaqiyatli mexanizmlari tizimli o'rganil-moqda:

Skandinaviya mamlakatlari ekologik madaniyat-ni korporativ boshqaruvning institutsional darajasiga ko'tarib, xodimlarning ixtiyoriy ekologik xulq-atvori-ni(OCBE) rag'batlantirish tizimini mukammal shakl-lantirgan.

Yaponiya o'zining an'anaviy tejamkorlik falsafasi-ni zamonaviy Green HRM texnologiyalariga integratsi-ya qilib, har bir xodim darajasida resurslar isrofini nol darajaga tushirish(Zero-Waste) mexanizmlarini joriy etgan.

Germaniya va AQSH tajribasida xodimlar-ni ekologik bilimi va kompetensiyalarini tizimli oshirish(Green Training) korxonalarining uzoq muddat-li investitsion jozibadorligini(ESG reytingini) ta'min-lovchi bosh institutsional omil hisoblanadi.

Xitoy esa yirik sanoat tarmoqlarida ekologik menej-ment standartlarini (ISO 14001) ishchi-xodimlarning kundalik faoliyat me'yorlariga qat'iy bog'lash orqali davlat darajasidagi yashil mexanizmlarni shakllantir-moqda.

Strategik zaruriyat va institutsional yondashuv

“O'zbekiston–2030” strategiyasida energiya sama-radorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Biroq sohaga kiritilayotgan milliardlab dollarlik inves-titsiyalar, innovatsion texnologiyalar va quyosh panel-lari, agar ularni boshqaradigan inson kapitali ekologik tafakkur va ko'nikmalarga ega bo'lmasa, to'liq samara bermaydi.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish texnologi-yalari ilmiy-tadqiqot institutida olib borilayotgan PhD ilmiy ishimiz aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni milliy korxonalarimiz uchun Green HRM texnologi-

yalarining institutsional modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Green HRM nazariyasining asoschisi, pro-fessor Walter Wermeyer ilmiy maktabi va jahon an-dozalariga tayangan holda xodimlarni resurslarni te-jashga undaydigan ijobiy **“Yashil KPI”** va motivatsiya tizimini joriy etish mexanizmlarini taklif etmoqdamiz.

Milliy qadriyatlar va xalqaro ESG talablari

O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida Green HRM modelining muvaffaqiyati uning xalqaro standartlar bilan birga milliy qadriyat va an'analarimizga hamo-hangligidadir. Xalqimizning azaliy “hashar” an'anasi, tabiatga, suv va zaminning har bir qarichiga bo'lgan hurmati korporativ ekologik mas'uliyatning ma'naviy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Matematik va tizim-li modellashtirish usullari (SEM-AMOS) orqali olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, ekologik mas'uliyat xodimlarning ichki qadriyati va korporativ madaniyatining ajralmas qismiga aylansa, tabiat bilan uyg'un ishlash tizimli amaliyot hamda hayot tarziga aylanadi.

Bundan tashqari, korxonalarda inson resurslarining ekologik tayyorgarligi bugungi kunda to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy nufuz belgisidir. Xalqaro moliya institutlari (YTTB, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki) inves-titsiya va grantlar ajratishda korxonalarining ESG (En-vironmental, Social, Governance) talablariga, xususan, inson kapitalining yashillashganlik darajasiga birinchi darajali e'tibor qaratmoqda.

Atrof-muhit barqarorligini ta'minlash strategiyasi qonunchilik talablarini chuqur anglaydigan, ekologik qadriyatlarni o'z kasbiy faoliyatining asosi deb biladi-gan intellektual ishchi kuchini tizimli rivojlantirish bi-lan uzviy bog'liqdir. Binobarin, taraqqiyotning kelajagi tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishda emas, bal-ki uning ekologik muvozanatini asragan holda, ilm-fan va innovatsiyalar orqali tabiat bilan hamohang yashash va ishlash mahoratidadir.

Bibijan ARALBAYEVA,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti mustaqil tadqiqotchisi

Namangan tibbiyotida yangi bo'g'in



“Salomatlik – tuman boylik! Sog'liq bo'lmasa, mol-dunyo ko'zga ko'rinmaydi, to'y-tantana ko'ngilga sig'maydi!”, deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, bugungi global dunyoda tinchlik uchun kurash qay darajada ustuvor vazifaga aylanayotgan bo'lsa, sog'liqni saqlash undan-da muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Zero, so'nggi yillarda nafaqat aholi soni, balki kasalliklarning turi ham ortmoqda. Tabiiyki, yangi paydo bo'layotgan yoki hali to'liq davosi topilmagan kasalliklarni bartaraf etish uchun tibbiyot zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanmoqda.

Shu maqsadda mamlakatimizda nodavlat tibbiyot oliy o'quv yurtlari tarmog'ini shakllantirish va rivojlan-tirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizdagi nodavlat oliy o'quv yurtlari orasida o'z nufuzi bilan ajralib turadigan UBS(University of business and science), ya'ni biznes va fan univer-siteti tibbiyot fakulteti shunday e'tibor-niing samarasidir.

Namangan tibbiyotining o'rganish-

ga, ibrat olishga arzigulik tarixi bor. Bu tarix zalvarini his qilmoq, angla-moq uchun taniqli shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi Barkamol Isoqovning “Namangan xirurgiya tarixi” kitobini mutolaa qilmoq kifoya. Muallif maz-kur kitobda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach Grigoriy Sarkisovich Grigoryans asos solgan Namangan xirurgiya maktabi va bu maktabda ka-mol topgan mashhur shifokorlar faoli-

yatiga bag'ishlangan ibratli, qiziqarli voqealarni qalamga olgan. UBS tibbi-yot fakulteti professor o'qituvchilari-niing bosh maqsadi shu nufuzli mak-tab an'anasini davom ettirish va yangi ilmiy-tibbiy maktablarni shakllantirish, rivojlantirishdan iborat. Albatta, bun-day yuksak vazifani zimmaga olish va hayotga tatbiq etish oson kechmaydi, lekin qiyinchiliklarga qaramay olg'a bormoq – zamonaviy tibbiyot yangi av-lodining burchi, mas'uliyatidir.

Chortoq tumanidagi Peshqo'rg'on qishlog'i ahli hozir ham mashhur urolog Muhammadjon Qodirov nomini ehtirom bilan tilga oladi. Hatto tunda ham taj-ribali pediatr Avazbek Abduvaliyev xo-nadonini yo'qlab boraveradi. Davolash jarayonida sifat va ijobiy natija bo'lmasa, bu kabi ehtirom yoki yo'qlov bo'lmasli-gi barchaga ayon. UBS tibbiyot fakulteti Namangan tibbiyotining yangi va ilg'or

bo'g'ini sifatida yuqori sifat va ijobiy natija uchun kurashga bel bog'lagan. Dars jarayoniga yuksak talabchanlik ruhida munosabatda bo'lish, zamonaviy tibbiyot yutuqlarini tegishli dasturlar asosida puxta o'zlashtirish – fakultetimiz talabalarining bosh shioridir. Tibbiyot kafedrası professor-o'qituvchilari esa talabalarga sifatli bilim berish borasida hamisha izlanishda. Bir necha nufuzli klinikalarning shifokorlari bir vaqtning o'zida UBS tibbiyot fakulteti professor o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritayot-gani talabalar uchun o'ziga xos qulaylik yaratmoqda.

UBS tibbiyot fakultetida amalga oshirilayotgan ishlar, universitet va fakultet ma'muriyati olg'a surayotgan tashabbuslar Namangan tibbiyoti ufoqlari porloq va yorug' ekanidan darakdir.

Bunyodbek MAMATVALIYEV,
UBS Tibbiyot kafedrası mudiri

Har qishloqning o‘z tarix kitobi bo‘lishi kerak!

Vaqt atalmish hali to‘la idrok etilmagan mavhum hodisa bag‘rida suzayotgan hayotimizni o‘tmish, hozir va kelajak o‘laroq tasavvur qilamiz. O‘tmish va kelajak orasidagi qildək chegara qayerda boshlanib, qayerda tugaydi? Bu hatto maktab bolasining tilidan toyib ketishi mumkin bo‘lgan oddiy dialektik savol. Lekin bu savolga peshonamiz urilsa, ongimiz ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketishi tayin. Hozir shu qadar tez o‘tmishga aylanadiki, ilg‘amoq imkonsiz. Hozirgi idrok qilolmasak, kelajak kelmagan bo‘lsa, bisotimizda birgina o‘tmish qoladi. Darvoqe, hozir o‘tmishga aйландimi, demak kelajak ham vaqti kelganda kechmish bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘tmish – biz insonlar uchun borliq masalasi. Balki hozirdan ham, yeri kelganda kelajakdan ham azizroq.



Shuning uchun ham insoniyat yarlal-ganidan buyon o‘z tarixini unutmaslikka, uni avlodlarga yetkazishga intilib keladi. Dast-lab rivoyatlar, afsona va og‘zaki hikoya-lar shaklida yashagan o‘tmish keyin-chalik toshlar, sopol taxtachalar, papirus va qog‘ozlarga ko‘chdi. Vaqt o‘tishi bilan tarix atalmish fan dunyoga keldi. Biroq bu o‘tmishni xolis va to‘liq anglay boshladik degani emas edi. Tarixiy asarlar hamma uchun birdek bag‘rikeng bo‘lavermaydi. Tarix, avvalo, manbalarga tayanadi. Man-balarni yaratish esa hamisha ham barcha qatlamlarga birdek nasib etmagan. Man-balar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, ularni kimdir yaratadi. Kimning nomi tarix zarva-raqlaridan joy olishi, jaydariroq qilib ayt-ganda, ko‘p jihatdan muarrixlarning him-matiga bog‘liq. Podshohlarning farmonlari bitilgan, sarkardalarning yurishlari qayd etilgan, amaldorlarning faoliyati yozib qoldirilgan, olim-u ulamolar va shoir-lardan asarlar meros qolgan. Shu sababli tarix ba‘zan faqat buyuk shaxslar haqidagi hikoyadek taassurot uyg‘otadi.

Ammo o‘tmish faqat shon-shavkatli imperiyalar, urushlar, buyuk odamlardan-gina iborat emas. Tarixda biz kabi oddiy odamlar – hunarmand, dehqon, chorvador, novvoylar... ham yashagan.

Qani endi yuzlab yillar avval yashagan oddiy insonlarning hayoti, orzu-armonlari, quvonch va tashvishlari haqida ham bataf-sil o‘qish imkoni bo‘lsa. Hech bo‘lmagan-da o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan qishloq, mahalla haqida yozilgan bir manbani varaqlab, un-dan ajdodlarimizning izlarini topa olasak...

Tarix haqidagi yuqoridagi fikrlarning menda tug‘ilishiga yaqinda qo‘limga tush-

gan bir kitob sababchi bo‘ldi: “Qizilkarvon qishlog‘i: o‘tmishda va bugun”. Ismoil Abruyev va Sherali Nishonov ham-muallifligidagi bu kitob Nurobod tuma-nidagi Qizilkarvon qishlog‘i haqida.

Bu kitob menga hadya qilingan edi. Barcha sovg‘a qilingan kitoblar kabi “Qizilkarvon qishlog‘i: o‘tmishda va bu-gun”ning ham peshonasiga ish stoli bur-chagida “Bu dangasa qachondir meni ham o‘qib qolar” deya umid bilan kutish yozil-gan ekan. Siz qatori mening ham kundalik tashvishlardan ortgan bo‘sh vaqtimni ijt-i-moiy tarmoqlar egallagan. Xullas, o‘zingiz tushunasiz – “band” odammiz.

Ish kunlarining birida ozroq chalg‘ish maqsadida kitobni qo‘limga olib varaqlay boshladim. Maqsadim, bir-ikki ko‘z yugur-tirib, eski o‘rmini sovutmasdan, tezda qay-tarib joyiga qo‘yish edi. Ammo...

O‘qishni boshlabman-u hamma narsani unitibman. Kitobdan boshimni ko‘tarib qarasam, allaqachon qorong‘u tushgan, xonadagi hamkasblarning ham barcha-si allaqachon ketib bo‘lgan ekan. Rostini ayt-sam, ancha yillardan beri biror kitobni shu qadar berilib, qiziqish bilan o‘qima-gandim.

Kitobdan uzilolmay qolganimning birinchi sababi uning puxta tuzilgani bilan bog‘liq. Mualliflar ma‘lumotlarni shuncha-ki yig‘ib qo‘ymagan, balki ularni mantiqiy izchillik va xronologik ketma-ketlik aso-sida tartiblagan. Shu bois asar o‘quvchini bir sahifadan boshqasiga tabiiy ravishda yetaklab boradi.

Kitobning ilk bo‘limi “Qizilkarvon qishlog‘i tarixi” deb nomlanadi. Unda qishloqning vujudga kelishi, shakllanishi va bugungi kungacha bosib o‘tgan yo‘li batafsil yoritilgan. Keyingi bo‘limlarda qishloqdagi joy nomlarining kelib chiqishi, urug‘ va sulolalar tarixi, yirik shajaralar, hududning geografik xususiyatlari, iqlimi va aholisi haqidagi ma‘lumotlar keltiriladi. Keyingi sahifalarda qishloq tarixidan qishloq odamlariga, ya‘ni tarixni yaratgan insonlarning o‘ziga yuzlanasiz.

Kitobda XIX asrdan to yaqin davrgacha yashab o‘tgan qizilkarvonlik nuroniylar, mehnat fidoyilari va el-yurt ardoqlagan in-sonlar haqida batafsil hikoya qilinadi. Biri cho‘pon, biri dehqon, biri kolxozchi, biri usta, biri polvon...

Umir bobo, Maman bobo, Abriy bobo... kabi o‘nlab nuroniylarning hayoti va faoli-yati haqidagi sahifalarni o‘qir ekansiz, ularni go‘yo yaqindan tanigandek bo‘lasiz.

Taassurot

Taqdirning oq-qora sahifalari

“Abdulla Qodiriy hovlisi darvozasi oldiga qora rangli mashina kelib to‘xta-di...”

Bu gap 1930-yillardagi qatag‘on davrida aytilgan bo‘lsa, bilingki, ushbu mashinadan tushgan turqi sovuq odamlar mazkur xona-donga tahlika, qo‘ruq, zulmat olib kirgan.

1937-yil 31-dekabr oqshomida xalq ti-lida “qora quzg‘un” nomi bilan tanilgan mashinada kelgan qora niyatli kimsalar Qo-diriy xonadonidagi insonlar ko‘nglini mangu zulmatda qoldirib ketishdi.

Shundan buyon bu xonadon sohiblari qora rangli mashinani ko‘rsa, dili xufton bo‘lar edi...

Oradan 89 yil o‘tdi.

Bugun ham Qodiriylar xonadoni darvo-zasi oldiga kunda-kunora qora rangli mashi-nalar kelib to‘xtaydi. Ammo endi ularda keladiganlarning niyati butkul boshqa, ular adabiyotning, Qodiriyning chinakam mux-lislari. Shu bois xonadon egalari bugun bun-day mashinani ko‘rsa, tahlikaga tushmaydi, dili xufton bo‘lmaydi.

Sababi – Abdulla Qodiriy shaxsi, qoldir-gan boy adabiy merosi bugun e‘zozda!

“O‘tkan kunlar”ning ilk mutolaasi va Qodiriy qizlari bilan suhbat

1992-yil. O‘quvchilik paytim – 13 yoshimda Zumrad ammamning 17 yosh-li o‘g‘li To‘rabek akam bilan Pastdarg‘om tumani markazi – Juma shahriga borib, “Xolbo‘ta bobo” kitob do‘konidan Abdul-la Qodiriy kitobini sotib oldim. 1992-yili G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-mat-baa birlashmasida chop etilgan ushbu qalin kitobdan “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari o‘rin olgan edi.

Ikkala romanni ham katta qiziqish bilan o‘qib chiqqach, ancha paytgacha ularning ta’sirida yurganimni eslayman(kitobni hamon avaylab saqlab kelaman).

Albatta, o‘sha payti bir kun kelib mash-hur adib yashagan hovliga borib, farzandlari bilan suhbat qilish tushimga ham kirmagan edi.

2004-yil mart oyi oxirlari. Abdulla Qo-diriyning 110 yilligi arafasida ulug‘ adibning “Samarqand darvoza” mahallasidagi xona-doniga bordim. Naqshinkor darvozani taqil-latganimda, eshikni Habibulla Qodiriyning kelini, oliy toifali shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi Gulnora Qodiriy ochdi.

Respublika ziyolilarining “Ma‘rifat” gazetasi muxbiri ekanimni, Abdulla Qo-diriyning 110 yilligi oldidan farzandlari bilan suhbat qilish niyatida kelganimni aytganim-dan so‘ng ichkariga taklif qildi.

Mezbon boshlagan xonaga chuqur haya-jon bilan kirib bordim.

Uydagilarga sezdirmaslikka harakat qilib, xonadon to‘rida devorga ilib qo‘yilgan tarixiy portretga – Abdulla Qodiriyning oila a‘zolari: onasi, tumush o‘rtog‘i, farzandlari bilan tushgan suratga qaradim.


Gulnora opa Abdulla Qodiriyning ikki qizi bilan tanishtirdi: Adiba aya Odilo-va (1924–2011), Anisa aya Abdullaye-va (1928–2012).

Men ularning huzuriga borganimda Adi-ba aya 80, Anisa aya 76 yoshda edilar.

Farzandim Abdulla Qodiriy, uning ijo-di, farang tarbiyasi haqida kechdi.

Mening devordagi suratga bir zum tikilib qolganimni ko‘rgan Adiba aya undagi oila a‘zolarini birma-bir tanishtirib chiqdi. Bu surat 1935-yilda tushirilgan ekan...

Humoyun QUVONDIQOV



“O‘TKAN KUNLAR”DAN “YALDO KECHASI”GACHA...

Gulnora opa qaynotasi Habibulla Qo-diriy haqida so‘zlar ekan, har yili 31-dekabrda, yangi yil kirib kelishidan oldin oila a‘zolari yig‘ilgan uyga kirib, hammani bayram bi-lan qutlar, dasturxonga bir-ikki marta uzal-gan bo‘lib, so‘ngra asta fотиha qilib, boshqa xonaga o‘tib ketar ekan. Chunki 1937-yil aymn 31-dekabr kuni Abdulla Qodiriy oila a‘zolari davrasida o‘tirgan payti NKVD-chilar uni o‘z uyidan olib chiqib ketgan, diydor qiyomatga qolgan...

Suhbatni tugatib, hovliga chiqdik.

Gulnora opa bilan xayrlashar ekanman, 1928-yilda qurilgan, Qodiriyning dilbar asarlari dunyoga kelgan, qanchadan qancha adiblarga soya bergan shiypondan nigohimni uzishim qiyin kechdi...

Qodiriyning qizlari bilan bo‘lgan suhbat ta’siridan chiqolmasdan, uyga borib, yana “O‘tkan kunlar”ni qo‘limga oldim. Bu – uchinchi marta o‘qishim edi.

Qodiriy xonadoni ahli bilan suhbatim “Ma‘rifat” gazetasining 2004-yil 10-aprel sonida e‘lon qilindi.

Qodiriy bo‘ldim...

2026-yil aprel oyi. Abdulla Qodiriy-ning qizlari bilan suhbatimiz chop etilgan gazetadan bir nusxa olib, yana o‘zim uchun qadrdon bo‘lgan qutlug‘ xonadonga bordim.

Darvoza qoshida oltmish-yetmish yosh-lardagi to‘rt-besh nuroniy gurgunglashib o‘tirgan ekan. “Hoynahoy bu insonlar bir paytlar Abdulla Qodiriyning qo‘sh-nilari, tengdoshlari bo‘lgan kishilarning avlodlari bo‘lsa kerak” degan fikr o‘tdi xayolimd.

Salomlashib, ulardan Abdulla Qodiriy-ning nevarasi Xondamir akani so‘radim.

Ulardan biri “yuring” deya darvozani ochib: “Xondamir, bu yoqqa qaravor” deb ovoq berdi.

Ichkarilarkanmiz, o‘ttiz qadamlar nari-da bog‘ yumushlari bilan mashg‘ul, ko‘ri-nishidan biz suratlari orqali tanish sevimli adibimizni eslatib yuboradigan bir inson biz tomonga qarab kela boshladi. Shu tobdan bundan yuz yil oldin Abdulla Qodiriyning ham xuddi shu tarzda bog‘ yumushlari bilan yurgani ko‘z oldimga keldi.

Xondamir aka bilan so‘rashib, gazetani tutqazdim. “Ha, bu suhbatni yaxshi eslay-man” dedilar u kishi jilmayib. Bugun dam olish kuni, uy-muзей yopiqligini bilmasdan, oilaviy kelgan edik, dedim uzr ohangida.

“Juda yaxshi qilibsiz-da, mayli, qani, ularni ham chaqiring, kiraverishsin” dedi Xondamir aka halimlik bilan.

Ikki katta o‘g‘lim bilan onasi “O‘tkan kunlar”ni o‘qigani bois darvozadan kirgan-da – chap tomondan joylashgan Otabekning tijorat ishlarida foydalangan sandig‘i va marg‘ilonlik mehmonlarga tegishli ekani yozib qo‘yilgan ramziy arava ularni g‘oyat qiziqtirib qo‘ydi.

“O‘tkan kunlar”ni yana o‘qiyman, dada” dedi katta o‘g‘lim hayajon bilan.

Men esa Abdulla Qodiriyning qizlari bi-lan suhbatimiz kechgan uyni axtarar edim. Uy-muзей qilish uchun bu hovli ko‘rinishi o‘zgargan ekan, o‘sha uyni topolmadim... Faqat hovli to‘rida – chap tomonda Qo-diriyning ijodxonasi asl holida saqlanibdi.

Buyuk adibga tegishli bo‘lgan kostyum-shim(chamamda, Qodiriy bobo o‘rta bo‘yli kishi bo‘lib, 48 yoki 50 o‘lchamdagi kos-tyum-shim kiygan), o‘rtadagi sandal(tan-cha), yaktaklar, devorga osig‘liq o‘sha oilaviy surat, ayol kishining(aftidan, Rah-barbonu ayaning) liboslari muzeýga borgan hech bir insonni befarq qoldirmaydi.

Keyin hovli to‘riga qarab yuridik. De-vorga qadab terib qo‘yilgan o‘tinlar, aslicha saqlangan o‘choqlar ham e‘tiborni tortadi. Bu joyni ko‘rib, ko‘z oldimda Rahbarbonu ayaning qizchalari – Adiba va Anisa bilan shu qozon-o‘choqda palov damlayotgani namoyon bo‘lganday bo‘ldi.

Asil aynimas

Xonadon sohibi bilan xayrlashib, darvo-zadan chiqarkanmiz, otaxonlar hamon suh-batlashib turishardi. Ular boygina biz hovliga kirayotganda chetraqqa o‘tishgan, to‘g‘rirog‘i, farzandlarimning onasi bilan birga kelayotganiga ko‘zi tushgan Xondamir aka o‘ziga xos odob bilan, qo‘shnilariga “Bir tomonga o‘tib turasizlarmi, ayol kishi bor ekan” degani qulog‘imga chalingan edi.

Ulug‘ adib nabirasining bu gaplaridan nihoyatda ta’sirlandim. Chunki shu lahzalar-da Abdulla Qodiriy asarlaridagi o‘zbekona takalluf, milliy odob-axloq, xotin-qizlarga bo‘lgan hurmatni avlodi – nevarasi misolida jonli ko‘rib turgan edim!

“Yaldo kechasi”dan angellanlarim

Shu kecha uyqum qochdi. Xayolotim-niing cheksiz olamida Otabek, gazetalarda o‘qiganim – “Yaldo kechasi” qahramonlari bo‘lgan Yodgorbek, Ozodbek va Odilbek go‘yoki Abdulla Qodiriyning farzand, ne-vara, chevaralari – Xondamir Qodiriyning qarindoshlari sifatida gavdalandi...

Ertalab “Yaldo kechasi”ni o‘qishga tayyor bo‘lib uyg‘ondim...

Asarni ish-yumushlararo oralatib, besh-olti kunda o‘qib tugatdim.

Angellanlarim budir: Yodgorbek Otabek o‘g‘li jonini Vatani uchun nisur qoldi. Ayniq-sa, uning Turkiston ahlini g‘aflat uyqusidan

uyg‘otishga intilib, o‘z hisobidan Marg‘i-londa “Najot” maktabini tashkil etishi ham-da “Najot” nomli gazeta chiqarishi, Usmon mus‘hafini Rossiyadan yurtga qaytarish yo‘lidagi jonbozligi – mustamlakachilar qur-shovida bo‘lsa-da, milliy ozodlikka erishish, diniy qadriyatlarini asrash yo‘lidagi dastlabki harakatlar sifatida tahsinga loyiq.

Ozodbek Yodgorbek o‘g‘li – murakkab xarakterli shaxs. Ali nomini Vali deb to‘nini o‘zgartirgan, lekin turkistonliklarni oyoq uchida ko‘rsatish fe‘li va harakati o‘zgarmag-an, boqimanda sifatida ko‘rgan, nomigina almashgan davlatga ishongan, aldangan in-son. Biroq uning tomirilarida Yusufbek hoji, Otabek, Yodgorbekning toza qoni oqayotgan edi. Esingizda bo‘lsa, “O‘tkan kunlar”da Homid Kumushga uylanmoqchi bo‘lgan yigitni o‘ldirib, o‘zi bilmagan holda Otabek-ka yordam qilgan – “xayrixoh qotil” bo‘lgan edi. Xuddi shu kabi Ozodbek ham Usmon mus‘hafini Turkistonga qaytarishga qilin-gan urinishdagi millatparvarlarga ko‘magi,

Ongi – maslagi g‘ayriturkiston bo‘lgan mamlakatning yolg‘on g‘oyalari bilan sug‘orilgan Ozodbek umri nihoyasida o‘zi ishonib kelgan hukumatning mafkuras-i sarob bo‘lib chiqqanini yaldo kechasida – otolishidan oldin anglaydi. Shunda-da, yura-giga emas, aqliga tayanib, afv etishlarini so‘rab, o‘zi ishongan hukumatga maktub yo-zadi. Ammo bu maktub manzilga yetib bo-rar-bormas, Ozodbek ham, uning sheri-karlari – mahalliy hukumat amaldorlari – Begaliyuf ham, Vasiyuf ham endi markaz uchun kerak emasdi: ular foydalanib bo‘lingan matoh kabi uluqotirib yuborilayotgan qoldiq jismlar edi go‘yo!

“Yaldo kechasi” romanini o‘qiy turib, Yodgorbekning otasi Otabek kabi, Odi-lbekning otasi Yodgorbek singari, hatto, ay-tish mumkinki, Ozodbekning otasi Yodgor-bek yanglig‘ Vatan manfaati yo‘lida shahid maqomida vafot topgani – yozuvchi Xayrid-din Sultonning bu yechimga kelishi – man-tiqan to‘g‘ri bo‘lgan deb hisobladim.

Mutolaani yakunlaganimda qalbmida o‘kinch paydo bo‘lganini yashirmayman: Ozodbek ham, Odilbek ham chimildiq ko‘rmay, o‘zlaridan zurriyot qoldirmay bu hayotdan o‘tib ketishdi. Ozodbek uylanish haqidagi undovlarga “qachondir bir daydi o‘q tegib o‘lib ketsam, farzandlarimga jabr bo‘ladi” deya javob bergan – barvaqt o‘limni bo‘yniga olib yashagan bo‘lsa, Odilbek ko‘ngli qo‘ygan qizi – Suyima otib ketilgan-dan keyin boshqa qizga uylanishni xayoliga keltirmay qo‘ygan edi.

Shu bois ikki og‘ayinning Zarafshon daryosidan – bitta o‘zan(qorin)dan tug‘ilib, Oqdaryo va Qoradaryo kabi alohida-alohida oqa-oqa baribir yana o‘sha o‘zanga qaytishi – birga oqishi kabi – maslagi Vatanga xizmat qilish bo‘lgani hamda yurt ozodligi yo‘lida shahid ketgani beixtiyor kitobxon ko‘ngliga taskin beradi.

Yana bir og‘riqli o‘kinch – Rafiq max-zumning bu dunyosida jazolanmasdan qol-gani bo‘lib, bunday kimsalarning borligi hamma zamonda ota-ona-yu ustozlarni mu-dom hushyor bo‘lishga undaydi.

1938-yil 4-oktabr tunidagi qotillik sabab Abdulla Qodiriyga yangi tong nasib etma-ganidek, “Yaldo kechasi” asari qahramo-ni – Ozodbekka ham yangi tongni ko‘rish buyurmadi – yaldo tunida qatl etildi. Ozod-bekning bo‘g‘zidan chiqqan so‘nggi nido: “Alvido, Turkiston!” deb o‘qiboq, epig-raf qilib olingan “Bu nechuk tunkim, oni tongi yo‘q...” degan so‘zlarning ma‘nisini ilg‘adim.

Bu kabi shahidlarni avlodlar unut-maydi: har yili 31-avgust sanasi tongida – shahidlar xotirasi xiyobonida yurt rahbari boshchiligidagi ularning nomiga mamlakat nomidan xatmi Qur‘on qilinib, yurtga osh beriladi...

“Yaldo kechasi”ni o‘qib bo‘lgach, ko‘ngilda “O‘tkan kunlar”ni yana mutolaa qilish istagi paydo bo‘ldi barbir.

Xayolot olamini cheksiz, deydilar. Shu tobdan xayolimga “Yaldo kechasi” asarini kinofilim qilsa bo‘lmastikimi?” degan fikr o‘tdi. Bu esa, kino ustalari hukmiga havola.

Sherali KARVONLI, jurnalist, Xalq ta’limi a’lochisi

Teran tomirlar

Qalamdan qilichgacha:

marshal Alixonto'ra Sog'uniyning alamli qayg'usi



Tarix sahifalari faqat g'alabalar va mag'lubiyatlardan iborat emas, u ko'pincha buyuk g'oyalar yo'lida qurbon bo'lgan shaxslarning fojealarini ham o'z bag'riga yashiradi.

XX asr Markaziy Osiyo xalqlari ozodlik harakatining eng yirik, eng nufuzli va eng murakkab siymolaridan biri – din ulamosi, davlat arbobi, tibbiyot bilimdoni, Sharqiy Turkiston Respublikasining birinchi Prezidenti hamda marshali Alixotir'a Sog'unidir. Bugungi kunda uning shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va fojiali hayot yo'li ko'plab ilmiy hamda badiiy-publistsistik tadqiqotlar mavzusiga aylangan. Xususan, Yoqubjon Xo'jamberdiyevning xalq xotiralari va real manbalarga asoslangan hujjatli ma'lumotlari hamda tarixchi olimlari Feruza Shokirovaning milliy uyg'onish davri adabiy-tarixiy manbalari, jumladan, Sog'uniy merosi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari allomaning hayot yo'lini butun murakkabligi bilan anglash imkonini beradi.

Alixonto'ra Sog'uniy oddiy bir siyosiy rahbar emas, balki chuqur diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lgan strategik tafakkur egasi edi. U umr bo'yi Turkiston xalqlarining boshiga tushgan qora kunlarni, millatning parchalanib ketishi va mustabid tuzumlar ostida ezilishini chuqur iztirob bilan kuzatdi va unga qarshi amaliy kurash olib bordi. Uning butun faoliyati mohiyatan sof islomiy ma'rifat, ilm-fan va insonparvarlik asoslaridan boshlanib, asrning eng dahshatli va makkor tuzumi hisoblangan sovet maxfiy xizmatlarining siyosiy kirdikorlari ostida fojiali yakun topdi.

Alixonto'ra Sog'uniy 1885-yili qadimiy Bolosog'un (hozirgi To'qmoq) shahrida ma'rifatli oilada dunyoga keldi. Yoshligidan islom dini asoslarini, arab, fors tillarini hamda sharq mumtoz adabiyotini mukammal o'rgandi. Keyinchalik Makka, Madina va Buxoro madrasalarida tahsil olib, nafaqat din ilmi, balki tibbiyot, astronomiya va tarix fanlaridan ham chuqur bilimga ega bo'ldi. Bu davr Turkiston o'lkasida jadidchilik va milliy uyg'onish g'oyalari gurkirab yashnayotgan, xalq o'zligini anglay boshlagan davr edi. Tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida alohida qayd etilganidek, Sog'uniy jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga, xususan, matbuot orqali xalqni uyg'otish chorlovlariga katta xayrixohlik bilan qaradi. U o'zining ijtimoiy chiqishlarida va xalq orasidagi suhbatlarida millatning qoloqlikdan qutulishi faqat ilm va ma'rifat orqali bo'lishini tinimsiz targ'ib etdi.

1916-yili Oq podshoning Turkiston xalqini mardikorlikka olish to'g'risidagi farmoni o'lkani larzaga keltirdi.

Sogʻuniy bu adolatsizlikka va millat yoshlarining imperiya manfaatlariga yoʻlida qurbon qilinishiga jim qarab tura olmadi. U Andijon, Bishkek hamda Toʻqmoqdagi xalq qoʻzgʻolonlarining maʼnaviy yetakchilaridan biriga aylandi. Boylarning oʻz farzandlari oʻrniga kambagʻallarni pul evaziga urush alangasiga joʻnatayotganidan gʻazablendi va adolat talab qildi. Qoʻzgʻolon chor hukumati tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgach, taʼqib va oʻlim xavfidan qochib, Sharqiy Turkistonga – Qashqarga oʻtishga majbur boʻldi. Bu surgun uning hayotidagi uzoq davom etadigan muhojirat hamda vatan sogʻinchining muqaddimasi edi.

Yoqubjon Xo‘jamberdiyevning tarixiy faktlarga asoslangan qaydlari va F.Shokirovaning ilmiy xulosalarida Sharqiy Turkiston(Shinjon) hududining XX asr o‘rtalaridagi ahvoli geosiyosiy qassobxonaga o‘xshatiladi. Bu hudud strategik joylashuvi va boy tabiiy resurslari sababli dunyoning eng yirik imperiyalari – Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Gomindan Xitoyi va eng asosiysi, Stalin boshchiligidagi Sovet Ittifoqining manfaatlari to‘qnashgan o‘ta xavfli maydon edi. Sovet hukumatiga Shinjon faqat geosiyosiy bufer hudud sifatida emas, balki o‘zining yadroviy dasturi – atom bombasi yaratish loyihasi uchun eng zarur bo‘lgan xomashyo: uran, volfram va titan konlari uchun kerak edi.

Alixonto'ra Sog'uniy o'zining mashhur "Turkiston qayg'usi" asarida va o'z davridagi nutqlarida mazkur imperiyalar xalqning ozodlik kurashidan faqat o'z manfaatlari yo'lida foydalanayotganini fosh qilgan edi. U Sharqiy Turkiston xalqini bir necha bor aldagan Gomindan ma'murlariga ham, sovetlarning soxta va dalariga ham ishonmaslikka chaqirdi. Chunki u sovet rejimining o'z ichkarisida (G'arbiy Turkistonda) dinni qanday yo'q qilgani, ziyolilarni qatag'on etganiga shaxsan guvoh bo'lgan va bu tajribadan to'g'ri xulosa chiqargan edi.

“Mustabid hukumatlar o‘z manfaatlari yo‘lida bir qo‘li bilan qo‘zg‘olonchilarga qurol ulashsa, ikkinchi qo‘li bilan ularning boshini kesish uchun raqiblari bilan yashirin bitimlar tuzadi. Turkiston xalqining fojeasi – uning soddaligi va o‘z dushmanlarining soxta muruvvatiga ishonishidir”, deb yozadi Alixonto‘ra Sog‘uniy o‘z xotiralarida.

Sog'uniyning fikricha, milliy ozodlik harakatlarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashidagi eng katta ichki omil ittifoqsizlik va mahalliy rahbarlarning siyosiy kaltafahm-ligi edi. U 1931-yilgi Qumul qo'zg'oloni va Xo'janiyoz Hoji harakatlarining inqirozini chuqur tahlil qildi. Xo'janiyoz Hojining sovet agenti va Shinjon diktatori Shon Shi Sayning yolg'on va'dalariga ishonib bitim tuzishi, qoqbatda 1930-yillar oxirida minglab vatanparvarlarning qatag'on

qilinishiga olib kelganini o'z asarlarida achchiq alam bilan bayon etdi.

1944-yilga kelib vaziyat o'zgardi. Ili okrugida boshlangan kuchli xalq qo'zg'oloni natijasida Sharqiy Turkiston Vaqtli Hukumati tuzildi va Alixonto'ra Sog'uniy yakdillik bilan Prezident hamda Milliy armiya Oliy qo'mondoni (marshali) etib saylandi. Bu tarixiy g'alaba millat uchun mustaqillik va o'zlikni tiklash yo'lidagi eng yorug' umid edi. Sog'uniy boshchiligidagi hukumat qisqa vaqt ichida davlat tuzilmalarini shakllantirdi, milliy valyutani muomalaga kiritdi va nizomiy armiyani tashkil etdi. Biroq bu mustaqillik Moskva va Nankinning (Gomindan hukumati) rejalariga mutlaqo zid edi. Stalin Shinjonda to'liq mustaqil, islomiy tamoyillarga asoslangan kuchli davlat shakllanishidan dahshatga tushdi, chunki bu holat G'arbiy Turkistondagi sovet mustamlakasi ostidagi xalqlar uchun ham zanjirni uzish signaliga aylanishi mumkin edi.

Sog'uniy atrofiga sovet maxsus xizmatlarining(NKVD/MGB) josuslik tarmoqlari o'ta faol ish olib bordi. Xalq qo'mondonining qat'iyati, uning Xitoy bilan sovet vositachiligisiz to'g'ridan to'g'ri ittifoq tuzishga intilishi va uran konlarini sovetlarga mutlaqo tekinga berib qo'ymaslik borasidagi pozitsiyasi uning taqdirini hal qildi. 1946-yilning iyun oyida, Sharqiy Turkiston xalqi o'z yetakchisining ortidan g'alaba sari borayotgan bir paytda, Alixonto'ra Sog'uniy sovet maxfiy xizmati xodimlari tomonidan G'ulja shahridan o'g'irlab ketildi.

U sobiq Itifoq hududiga olib o‘tilib, Toshkentda uy qamog‘iga olindi. Bu oddiy qamoq emas, balki shaxsiyatini, tarixiy rolini va siyosiy ovozinini butunlay o‘chirishga qaratilgan ma’naviy asirlik edi. U o‘zi asos solgan respublikani, qurolli safdoshlari(Abdukarim Abbosov, Is‘hoqbek Mononov kabi shaxslar) sovetlar va Xitoy kommunistlari o‘rtasidagi makkorona kelishuvlar qurboni bo‘lganini, so‘ngra “sirli aviahalokatda yo‘q qilinganini” asirlikda turib cheksiz qayg‘u bilan eshitdi. Ushbu asirlik yillari Sog‘uniy qalbining eng og‘ir va ayni paytda mag‘rur lahzalari edi. U mahbuslikda ham taslim bo‘lmadi, iymonini, millat kelajagiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmadi.

Alixonto'ra Sog'uniy umrining qolgan qismini Toshkentda o'ta qattiq nazorat ostida o'tkazgan esa-da, vaqtini bekor sarflamadi. Ma'naviy xazinaga aylanib ulgurgan "Turkiston qayg'usi" asarini yozdi, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" asarini, shuningdek, Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobini fors tilidan o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qildi.

Sogʻuniy 1976-yili Toshkentda vafot etdi va Shayx Zayniddin bobo(Koʻkcha) qabristoniga dafn qilindi. Uning hayoti va kurashi avlodlar uchun ulkan saboqdir. Bolalikdan boshlangan sof imon va ozodlik gʻoyasi Sovet imperiyasining temir panjaralari panjasida ham sinmadi. Alixon-toʻra Sogʻuniyning millat erkiga boʻlgan boqiy sogʻinchi bugungi hurligimizning qadriga yetishga undayveradi.

Bahromjon XUDOYBERDIYEV,
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi
tarix fani o'qituvchisi
Ibodatxon NOSIRJONOVA,
shu maktabning 11-sinf o'quvchisi

Munosabat

Illatga aylangan qadriyat

To'y insonlarning eng quvonchli kunlari o'tkaziladigan marosim. To'yning turi, qaysi millat vakillariga oid ekanligidan qat'i nazar, odamlar yaxshi kunini nishonlash maqsadida to'planishadi. Nikoh to'ylarini o'tkazish, jamiyatga yangi oila qo'shilganini omma, ayniqsa, qarindosh-urug', do'st-u birodarlarga bildirishdir. Rivojlangan davlatlar yoki Yevropa mamlakatlarida nikoh marosimlari ibodatxonalarda o'tkaziladi, shundan so'ng to'y egalari eng yaqin insonlari uchun ziyofat tashkil etishadi. Sharq mamlakatlarida esa to'y uchun juda katta mablag' sarflanmoqda. Ayniqsa, yurtimizda keng nishonlanadigan to'y marosimlarini qisqartirishga bag'ishlangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senat Kengashi qo'shma qarori bilan "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Ammo bu nizom faqatgina COVID-19 pandemiyasi davrida amal qildi xolos. Chunki o'zbek xalqining

to'y o'tkazish maqsadida isrofgarchilik, dabdababozlik, "kimo'zarga" to'y qilish illatlari o'tgan asrda ham davr muammosi bo'lgan. Buning isbotini o'zbek adabiyotiga roman janrini olib kirgan buyuk jamoat did ajdodimiz Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi ko'rish mumkin. Dramada dabdabali to'y qilish illati ikki yoshning o'z jonlariga qasd qilishlarigacha olib boradi. Ya'ni drama qahramoni Solih uylanish uchun amakisining gapiga kirib Fayziboy(qaynotasi)-dan katta miqdorda qarz olishga majbur bo'ladi. To'lay olmagan bo's hayotdan umidini uzib qarz qurboniga aylanadi. Yurtimizdagi to'ylarning barchasi ham qarzsiz o'tkazilayaptimi?! Insonlar yillab topgan mablag'larini shu qadar oson sarflab yuborishi odamni shoshirib qo'yadi. Dabdaba insonni baxtga yetaklab qo'ymasligini unutib qo'yamiz. Yildan yilga nikohlar ajrim bilan tugashi ko'payib bormoqda. 2025-yilning ilk olti oyida 23,3 mingta ajrim holati qayd qilingan. Bunga esa iqtisodiy

sodiy bosimlarning aloqasi yo‘q deb aytol-maysiz.

Abdulla Qodiriy o‘z she’rida quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

*O'tsa to'y birla yoz-u qishimiz,
Aylagay bizni yerg'a yakson to'y.*
("To'y", 1915)

Afsuski, o'zbek to'y lari millatni "yakson" qilmoqda. Chekka maktablar, bolalar bog'chalari, tibbiy punktlar ta'mirlalab ahvolda. Begonalar emas, o'zimizning vatandoshlarimiz qulay sharoitlarga muhoj. Biroq biz millionlab pul sarflab to'y qilarkanmiz, bu "og'riqlar" tuzalishi qiyin. Jamiyatimizda obro', hurmat-e'tibor to'y uchun sarf qilinadigan xarajatlar, dasturxonga qo'yiladigan ne'matlar bilan o'lganadigan bo'ldi. Sahih hadislardan birida "Yenglar, ichinglar, kiyininglar va sadaqa qilinglar, isrof va mutakabbirlik bo'lmasa bas" deyiladi. Bizning to'y lari-miz va unga bog'liq marosimlar esa isrofgarchilikning eng yorqin namunasi bo'lib

qolmoqda. Agar to'y-marosim, bazzalarga sarflagan mablag'larimizning hech bo'lmaganda yarmini ilmga bag'ishlaganimizda edi malakali kadrlar soni yanada ortib, ilmiy yangiliklar ko'paygan bo'lar-di. Afsuski, to'y deb atalgan qadriyatimiz hozir zararimizga ishlamoqda. Qadriyatlar xalq ma'naviyati va madaniyatini yaqqol ko'rsatuvchi ko'zgu hisoblanadi. Illatga aylangan qadriyatimiz xalqimizni johil kabi namoyon qilmoqda. Bundan chiqish yo'li esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi va Senat Kengashi qo'shma qarorining ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish, Vatan, jamiyat, qolaversa, kelajak uchun yuzlab ishlarni amalga oshirish mumkinligini, kerak bo'lsa, har kuni targ'ibot qilish, ikki yoshning dabdabali to'y-marosimlardan ko'ra, dunyoqarashini kengaytirish uchun sayohatlarga yuborish, kelgusida farzandlarining moddiy ehtiyojini qondirish uchun investitsiya yaratish muhimroq ekanini anglashga qaratilgan chora-tadbirlar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ammo hech qanday qonun o'zbek xalqiga to'y qilishni taqiqlamaydi. Faqatgina ixchamroq, ortiqcha hashamsiz, ikki yoshni yangi hayotga kuzatish tarafdorimiz.

Kamola SAYFIDDINOVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti magistranti

O'zing yoqtirgan mavzuda maza qilib gaplashadigan, bahslashadigan odamlarning borligi qanday yaxshi. Mening bir bobom bor. Bizda otasidan yoshi katta kishilarni bobo deyishadi. Otamning barcha sinfdosh do'stlarini ham bobo deymiz. Men aytayotgan odam dadamning akasi, yana adabiyot muallimim. Qirq yildan ziyod vaqt maktabda dars bergan. Kattaotam (dadamning dadasi) men sakkiz yosh vaqtim olamdan o'tgan. U haqidagi xotiralarim uzuq-yuluq bo'lsa ham, qo'y boqishga nabiralarini olib ketishlari va ularga doston aytib berishlarini eslayman.

Gohida biz qizaloq nabiralari ham bobom bilan qo'y boqishga chiqardik. O'shanda dasht mayda sariq qo'zigullarga to'la bo'lardi. Kattalarning gaplariga ishonsak, ular katta otamning urushdan keyin ham ancha o'tib uyga qaytganini, kelganda o'zbek tilini ancha unutganini aytishadi. Lekin kattaotamning xotirasi juda kuchli bo'lganini ham ta'kidlashadi. O'sha vaqtlar biz tomonlarga ham kelib qolgan baxshilar kimningdir uyida qo'noq bo'lib, tonggacha doston aytib chiqar ekan. Baxshi ketganidan keyin kattaotam dostonlarni so'zma-so'z, xuddi o'shanday aytib berarkan. "Ochil buva yodkash edi", deydi qishloqdagilar mening she'r yozishimda ajdodlarimizdan o'tgan nimadir asos borligini bildirib. Bundan xursand bo'laman. Ayamning ayasi ham, o'zi ham she'r yozgan. So'zga maftunlik qondan o'tgan bo'lsa, yuqtirganga qulluq deymiz.

Bobom haqida yozmoqchi edim. O'tgan yozda qishloqda paytim bobom kelib qoldi. Xudo umrini uzoq qilsin. O'tgan-qaytgan vaqtlari kattaenam yashagan uyga kelib, o'tganlarning haqqiga duo qilib ketishadi. Shunda bobom bilan suhbatlashib qoldik. O'zbekning barcha shoir va yozuvchilarini biladigan odam keskir fikrlarini aytadi.

– Falonchi shoir emas, – deydi xalq shoiri unvonini olgan katta avlod vakillaridan bir nechasi haqida.

Shunda momom suhbatga aralashadi:

– U shoir emas, bu shoir deysiz. Vaqtida o'g'lingiz O'tkirning ham yozishiga qo'ymadingiz. "Usmondan zo'r yozmasang, yozma", deb. Sizdan xafa bo'ladi. "Yozib yurganimda shoir bo'lib ketarmidim?", deydi.

– Yo'q, – deydi bobom bosh chayqab.

– Ha, unda nevarangiz shoirmi? – qaltis savol beradi momom.

Bu savoldan o'ng'aysizlanaman. Bobom ham gapirmaydi. "Ha" ishorasini qilib bosh silkiydi. Biroz jimlikdan keyin suhbat yana davom etadi.

Avval dadam bilan kechadigan adabiyot haqidagi suhbatlarimiz bir zumga qaytgandek bo'ladi. Faqat dadam mutlaqo boshqacha fikrlar aytardi. Men gohida: "Menga bolaligimda mana bu shoirning she'rlarini tinmay yodlatgansiz. Asli u ko'plarni sotgan ekan", deb

RAHMAT, BOBO!

norozi bo'lsam, "Yoshsan-da, sizlar u davrlarni bil-maysizlar", deb qo'yardi. O'zi uchun ham o'sha shoir-yozuvchini oqlashga urinayotgandek tuyulardi menga. Bobom bizni o'qitgan muallimimiz bo'lsa ham, avvallari haddim yetib hech gaplashmagan ekanman.

Qish oylari "Qahr" atrofida muhokamalar ko'payganida bobom telefon qildi. "Sharq yulduzi"ning elektron nusxasini yubordim. Qashqadaryoning bir kichik qishlog'ida yashab, garchi nafaqada bo'lsa ham ishlab yurgan bobomning bu yerdagi adabiy voqealarga diqqat bilan qarashidan yana hayratlandim.

Yaqinda telefonda yo'qlagan bobom ahvolimni so'ragandan keyin:

– Talant Tolerant kim? – deb so'rab qoldi.

Akaning samarqandlik ekani, shoiriligini bilganimcha aytdim. Keyin nasrda kimlar yozayotgani haqida gaplashdik. Yangi nashr qilingan "Yaldo kechasi"ni, "Giryon"ni aytdim.

– Shu gal borganimda sizga olib boraman, – dedim.

Bobom aytadiki, 1974-yili (yilida adashayotgan bo'lishim mumkin) Xayriddin Sultonning "Yozning yolg'iz yodgori" qissasi "Sharq yulduzi"da chop etilgan va yozuvchini xalq orasida tanitgan. Murod Muham-

mad Do'stning qaysi asari qachon jurnalda berilgani, Tog'ay Murodning qaysi asari qachon chop etilgani... Suhbat ilgarilab ketaveradi. Sobir O'narni eslaydi, Luqmon Bo'rixonni eslaydi, "Jaziramadagi odamlar"ni o'qiganini aytadi.

– Hozir ham yozib turishibdi, bobo, – deyman.

Bobom bir-ikki nasrda yozadigan akalarni sanaydi.

– Bular "sariq matbuot"dan chiqqan, – deydi.

Men ayni guvoh bo'lgan, orasida she'r beriladigan bittagina sahifasi bo'ladigan gazetalarni aytadi bobom.

– Vaziyati shunday bo'ldiki, Tohir Malikday yozuvchilar "sariq matbuot" boshiga kelib qoldi-da, – deydi afsuslanib. – Men hayron bo'laman. Televizorga qarasang, kap-katta, el hurmat qiladigan artistlar arzimagandorilarni reklama qilib o'tiradi. Men ularni olmayman, lekin kimdir shuning aytgani chindir deb oladi-da Jahlim chiqsa, momong hovurimdan tushiradi:

– Qo'ying, shularning ham bola-chaqasi bordir, – deb.

– Odam baribir unday ish qilishi kerak emas-da, – deydi bobom.

Gurung oxirlaydi. Ungacha bobom bilan menga qolgandek butun adabiyotdagi g'imirlagan borki, saragini sarakka – puchagini puchakka ajratamiz. Bir katta ishni tugatgandek his qilaman o'zimni.

Gap so'ngida bobom yana Talant Tolerantga qaytadi:

– Talant yozibdi, odamlar Zulfiya mukofotini olish uchun she'rlar yozdirib olarkan pulga...

Bobomning nima demoqchi ekanini anglab yetolmayman.

– Unday emas, bobo, – deyman. – Qachondir bo'lgandir, lekin hozir unday emas (Har baloni yoza-verar ekanda Talant aka ham o'ylamay, deyman ichimda).

– Birortasi kelib iltimos qilsa, sen shu ishni qilmagin, qizim, – deydi.

Bobomning bir soatlik gurungi, menga telefon qilishidan maqsadi asli shu bo'lganini tushunaman. Xudo bergan iste'dodga xiyonat qilmaslik kerak ekanini menga bir katta dars qilib o'tib berganini anglayman. Dadam kabi mening ijodimni o'ylaydigan odam borligini his qilaman. Katta-katta she'rlar yozgim keladi. O'zimdan umidlanaman. Rahmat, bobo!

Madina NORCHAYEVA

Ehtirom

SAMIMIY, MEHRIBON, JONKUYAR USTOZ

Hayotda shunday insonlar borki, ko'rishganda ko'zlarda quvonch, qalbda surur va hayajon-la gaplashamiz. Ularning samimiy va iliq munosabati ko'rinmas rishtalar orqali bizni o'ziga bog'layveradi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori Xolida Alimovani xuddi shunday xotiralar bilan eslayman...

2014-yili talaba bo'ldim. O'sha zamonlar kimning o'g'li yoki qizi talaba bo'lsa, ayniqsa poytaxtning eng nufuzli OTMLaridan biriga o'qishga kirsam, bu nafaqat bir oilaning, balki butun mahallaning faxri, iftixori bo'lardi. Birgina o'qishga kirish yetti mahalla oralab dong'i ketgan mashhur inson bo'lishingizga sabab bo'lgan yillar edi... Ha, men o'sha zamonlarda Toshkentda o'qiyman deb harakat qilganlardan biriman. Esimda, talabalikning ilk kunlaridan bizga zabardast ustozlar, o'z sohasining yetuk mutaxassisleri dars bera boshlagan. Shuning uchun bu ilmiy va adabiy muhit meni o'ziga chorlayvergan. Buning zamirida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, va albatta, "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrası ustozlarining be-

minnat mehnatlari turibdi!

Xolida Alimova 2012–2018-yillari "Eron-afg'on filologiyasi" kafedrasining mudiri bo'lgan. Talabalikning oltin davri bevosita ustoz bilan bog'liq. Biz u kishidan ko'p narsa o'rgandik. Avvalo, sharqshunos kim? U o'zini qanday tutishi kerak? U qanday odob-axloqqa rioya qilishi lozim, degan savollarga javob olganmiz. Eronshunos bo'lish baxti va bu oliy dargoh bitiruvchilari kimlar bo'lganligi, biz talabalar buni yoddan chiqarmagan holda o'zimizni shunga xos tutishimiz lozimligi Xolida opa ma'ruzalari orqali bizga yod bo'lgan. Ustoz doim talabalari haqida qayg'urgani, jon kuydirganini ko'rganman. Qandaydir muammoga duch kelganimizda ustoz eshitib qolsa to'g'ri yo'lga solardi. "Eron-

afg'on filologiyasi" kafedrası talabalari uchun tez-tez uchrashuvlar o'tkazib, bizni o'sha paytdagi yangiliklar va dolzabr masalalardan ogohlantirardi, va albatta, bunday yangiliklarga befarq qaramaslikka da'vat etardi. Bunday uchrashuvlardan men o'zimga juda ko'p va xo'p xulosalar olganman. Ustozning da'vatlaridan ilmga qiziqishim va rag'batim oshgan. Shuning uchun bo'lsa kerak institut miqyosidagi turli tadbir va konferensiyalarda faol qatnashib kelganman. Hozir erishgan natijalarimda Xolida opaning katta hissasi bor deb bilaman.

Xolida Alimovadagi samimiylik, mehribonlik, fidoyilik va jonkuyarlik, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish fazilatlarini juda qadrlayman.

Yaqinda ilmiy ishim bilan bog'liq muammoga duch kelganimda ustoz masalaning mohiyatini aniq, tiniq va ravon tushuntiribgina qolmay, diqqatimni aynan nimalarga qaratishim kerakligini uqtirdi. Juda qisqa davom etgan suhbat davomida u kishining vaqtini qanchalik qadrlashi va oldiga kelgan har bir kishiga katta e'tibor qaratishini sezdim.



Ustoz, ilm yo'lida ziyo taratishdan tolmang, doim shogirdlar ardog'ida yuring. Siz kabi ustozlar bor ekan ilm chirog'i hech o'chmagay. 60 yoshingiz muborak bo'lsin!

Kamola JUMAYEVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Jahon chempionati-2026

Shaxmatda 7 ochko chegarasi bor. Ya'ni, shveysarcha tizimda 9 turdan iborat turnirda 7 ochko to'playdigan darajaga yetdingmi, zo'r shaxmatchisan. 7 ochko degani 98 foiz holatda kamida 3-o'rin degani.

SHAXMAT VA FUTBOL



Shveysarcha tizim haqida: 1-turda reytingda eng yuqori o'rindagi bilan eng oxirgi o'rindagi o'ynaydi. 2-o'rindagi bilan oxirgidan oldingi va hokazo. 2-turdan boshlab yutgan yutgan bilan, yutqazgan yutqazgan bilan. Shunday davom etadi. Reyting bo'yicha top-100 likka kirdingmi, endi jahon darajasida yulduzsan. Bizdan hozir 5 shaxmatchi top-100 likda:

4. Javohir Sindorov – 2777.
5. Nodirbek Abdusattorov – 2777.
40. Nodirbek Yoqubboyev – 2689.
50. Rustam Qosimjonov – 2665.
89. Shamsiddin Vohidov – 2637.

Terma jamoamiz o'rtacha 2623 ball bilan terma jamoalar o'rtasida 9-o'rinda.

Futbolchilarimiz-chi? Yevropaning eng kuchli 5 chempionatida o'ynaydigani 1 nafar. Yana 2 nafari Turkiya chempionatida. Bir nechasi Eronda o'ynaydi, Eron chempionati O'zbekiston chempionatidan kuchli emas. Portugaliya terma jamoasining 17, Kongoning 10, Kolumbiyaning 8 futbolchisi top-5 chempionatda o'ynaydi. Jahon chempionati boshlanishidan oldin yaqindagina professional futbolchilik faoliyatini tugatgan Javohir Sohibov bilan gurunglashganimda fikrimiz bir joydan chiqdi: 1 ochko ololsak ham katta gap! Lekin shu 1 ochkoni ham ololmadik. Bunga balki murabbiy qisman aybdordir, futbolchilarimizda gartak qat'iyat yetishmagandir, darvozabonlarimiz o'ta bo'sh o'ynagani sababdir. Lekin o'ynasa bo'lar ekan: Kolumbiya bilan o'yinning oxirgi 10 daqiqasidagidek, Portugaliya bilan birinchi taymdagi suvichardan keyingi 10 daqiqadagidek, Kongo bilan 1-taymdagidek...

Xullas, shaxmatda hozir O'zbekiston bilan butun dunyo hisoblashishga majbur. 15, 20 yo 30 yil oldin-chi? Bitta Rustam Qosimjonov bor edi. Rustam boshlagan yurishni keyingi avlod dadil davom ettirmoqda. Futbolchilarimiz ham 2004-yili Rustam Qosimjonov yurish qilganidek (FIDE jahon chempionati g'olibi) qadamni qo'yishdi: necha yillik orzumiz – Jahon chempionati final bosqichiga chiqdik. Buyog'i endi futbolimiz mutasaddilarining eng to'g'ri yurishlarni topa olishiga bog'liq. Mundialdan so'ng albatta hech bo'lmasa bir futbolchimiz (Behruz Karimov) Yevropaning top-5 chempionatiga o'tishidan umidvormiz. Bu haqiqiy “asp yurish” bo'lar edi. Va izidan yana va yana. Shunda JCHdagi mag'lubiyatlarimiz esdan chiqadi...

Husan KARVONLI

To'g'ri qaror yutuqlarga poydevor

Milliy terma jamoamiz jahon chempionatida futbol muxlislarimiz kutganidek o'yin namoyish etolmadi. Guruh bosqichida uchta o'yin, uchta mag'lubiyat(Kolumbiyaga 1:3, Portugaliyaga 0:5, Kongo DRga 1:3) va oxirgi o'rin. Jahon chempionatidagi 48 jamoa o'rtasida esa 47-o'rin. Bizdan keyingi o'rinni to'plar nisbati yomonroq bo'lgani uchun Iroq jamoasi egalladi. Afsuski, dastlabki ikki o'yindan keyin jamoamizning keyingi bosqichga chiqa olmasligi deyarli aniq bo'lgandi. Qizig'i, bosh murabbiy Fabio Kannavaroning har mag'lubiyatdan keyin futbolchilar bilan faxrlanishini aytishi hammani hayron qoldirdi. U bundan ham yirikroq mag'lubiyatlarni kutganmidi? Umuman, mag'lubiyatlardan faxrlanadigan murabbiyga nima ham deyish mumkin?

To'g'ri, jahon chempionati qatnashchilari soni 48 taga yetkazilgach, kuchli jamoalar uchun guruh uchrashuvlari hal qiluvchi bahslar oldidan o'rgamchik o'yinlarga aylandi. Ya'ni, tejamkor o'yin ko'rsatib, futbolchilar jorhat olmasligiga erishish, kerakli ochko to'plab, keyingi bosqich uchun qulay raqib tanlash. Shu bois Kolumbiya va Portugaliya futbolchilari bizga qarshi bor kuch bilan o'ynaganlari yo'q(agar Portugaliyaga to'plar nisbati kerak bo'lganda bundan ham yirikroq hisobda yutgan bo'lardi). Kuchli jamoalarning shunday o'rgamchik o'yinlarida ham futbolchilarimiz o'zlarini ko'rsata olishmadi. Uchinchi o'yinda Kongo DR g'alaba qozonsa, keyingi bosqichga chiqardi. Futbolchilarimiz uchun bu o'yinning natijasi ahamiyatini yo'qotgandi. **Lekin bu o'yin futbolchilarimiz o'z sha'nlari munosib himoya qilishlari uchun berilgan yaxshi imkoniyat edi.** Afsuski, yana nursiz o'yin va yana mag'lubiyat.

Shu o'rinda Temur Kopadze murabbiyligidagi olimpiya terma jamoamizning ikki yil oldingi natijalarini esga olsak. Ular ham dastlabki ikki o'yinda mag'lubiyatga uchrab(Ispaniyaga 1:2, Misrga 0:1), jomadonini yig'ishtirishga tushishgandi. Uchinchi ahamiyatsiz o'yinda Dominikan bilan durang (1:1) qayd etilgandi va guruhda oxirgi o'rindan joy olgandi. Demak, futbolchilari-

mizning nufuzli musobaqalarda munosib qatnasha olmayotganining ildizini topishimiz kerak bo'ladi. Esimda, milliy terma jamoamiz 2000-yili Osiyo kubogining guruh bosqichida ketma-ket uchta mag'lubiyatga uchradi. To'g'ri xulosa chiqarilib, O'zbekiston futbol federatsiyasi(o'shanda shunday nomlandi) xodimlari to'liq o'zgartirildi va yangi kadrlar bilan to'ldirildi. Yangilangan tarkib ishni to'g'ri tashkil qildi, natijada o'smirlar, yoshlar terma jamoalarimiz Osiyo va jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnasha boshlagandi.

Yana futbolchilarimiz birinchi marta jahon chempionatida qatnashdi demang. Ularning asabbuzar mag'lubiyatlarini hech qanday bahona bilan oqlab bo'lmaydi. Unutmang, sportchining chekiga mas'uliyatli vazifani bajarish tushganda uning kimligi bilinadi! Shaxmat bo'yicha milliy terma jamoamiz 1992-yili juda qiyin davrda birinchi marta Jahon shaxmat olimpiadasida qatnashgandi, biri-biridan qiyin bahslarda g'alaba qozonib, faxrli ikkinchi o'rinni egallagandi. Jamoamiz oxirgi turda isroilliklarni yirik hisobda yutsagina kumush medalni qo'lga kiritardi. Shunday mas'uliyatli o'yinda yurtdoshlarimiz isroilliklarni 3:1 hisobida yengishdi.

Yaxshisi, olimpiada qatnashchisi Mixail Saltayevning o'sha vaqtda aytgan fikrlarini havola etaman:

– Ba'zilar hisobni ko'rib, jamoamiz

osongina yutibdi, deya o'ylagan bo'lishi mumkin. Go'yo ularning nazdida raqiblarimiz bu bahsga tayyorgarlik ko'rmagan. Haqiqiy ahvol aksincha edi. Isroilliklarning barchasi bizga tanish kuchli grossmeysterlar, ya'ni ular sobiq ittifoqdan borishgandi. Yana bir omilni eslatishim lozim, isroilliklar bizni yutishsa, sovrinli o'ringa ilinshardi. Shuning uchun guruh rahbarlari ularga “Agar o'zbekistonliklarni yutsangizlar har biringizga 10 ming AQSH dollaridan mukofot beramiz”, deya va'da berishibdi. Bunday va'dani eshitgandan keyin ular bahsga qanday tayyorgarlik ko'rganini o'zingiz tasavvur qilavering.

Isroilliklarga va'da etilgan bu miqdor o'sha vaqtda bizning pulimizda 1510000 so'mni tashkil etardi. Bizning shaxmatchilarimiz esa hech qanday mukofot pullarini xayollariga ham keltirmay Vatan sha'ni, o'zlarining shaxmatchilik sha'ni uchun jangga kirishdi va g'alaba qozondilar. Keyinroq olimpiadadan kumush medal bilan qaytgan shaxmatchilarimizning har biriga Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi erishgan muvaffaqiyatlari uchun 4000 so'mdan mukofot puli ajratdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tmishdagi xatolar takrorlanmasligi uchun futbolchilarimiz jahon chempionatiga yo'llanma olishi bilan har birini sportdagi eng yuksak unvon – “O'zbekiston iftixori” faxriy unvoni bilan mukofotladi, jahon chempionatiga munosib tayyorgarlik ko'rishi uchun barcha sharoitni yaratib berdi, jahon chempionatiga yo'l olgan terma jamoamizga yaxshi tilaklarini bildirib, o'zi kuzatib qo'ydi. Futbolchilarga bunday e'tibor yana qayda bor?

Xullas, sport mutasaddilarimiz futbolchilarimizning jahon chempionatidagi natijalarini xolis baholaydigan va to'g'ri qaror qabul qiladigan fursat keldi. Axir bizni oldda yangi olimpiada va jahon chempionatlari kutib turibdi. Ulardan keyin yana attang deb qolmasligimiz uchun hech kechiktirmasdan to'g'ri qaror qabul qilib, yangi yutuqlarimizga mustahkam poydevor qo'yishimiz kerak.

Asror MO'MIN,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

Men futbolni tushunmayman, lekin...

Futbolni yaxshi tushunmayman. Ofsayd nima, pressing nima, taktika qanday bo'lishini ham bilmayman. To'g'risi, shu kungacha futbol ko'rishga ham unchalik qiziqmaganman. Lekin shu safar televizor qarshisiga o'tirdim. Sababi oddiy edi: maydonda mening Vatanim bor edi.

Men o'qituvchiman. Har kuni bolalarga orzu qilishni, maqsad sari intilishni, Vatan bilan faxrlanishni o'rgataman. Ammo shu kunlarda o'zim ham bir narsani ich-ichimdan angladim – katta orzular ushalishini. Jahon chempionatida O'zbekiston nomini ko'rganimda negadir yuragim boshqacha urdi. Axir biz bunga necha yillar intildik. Necha avlod futbolchilari shu orzu bilan yashadi. Meni hisoblar, natijalar yoki turnir jadvali ham emas, boshqa narsa hayajonga soldi – Madhiyamiz yangragan daqiqalar! O'sha lahzada maydonda futbolchilarimiz turgan

bo'lsa-da, men butun O'zbekistonni ko'rdim – dalada mehnat qilayotgan dehqonni, sinfda dars o'tayotgan ustozni, chegarda xizmat qilayotgan askarni, kelajak sari intilayotgan yoshlarni! Bir paytlar biz jahon chempionatini tomosha qilib, boshqa davlatlarning madhiyasini eshitardik.

Bugun esa dunyo bizning madhiyamizni eshitmoqda. Balki kimdir uchun bu shunchaki futbol o'yinidir.

Ammo men uchun u – O'zbekiston degan nomning dunyo sahnasida jaranglashi bo'ldi.

Men futbolni tushunmayman.

Lekin Vatan bilan faxrlanish nimaligini juda yaxshi tushuman. Jahon arenalarida bayrog'imiz hilpirayotgan, madhiyamiz yangrayotgan ekan, demak O'zbekistonning ovozi dunyoga eshitilmoqda. Bu ovoz – g'urur ovozi. Bu ovoz – taraqqiyot ovozi. Bu ovoz – buyuk kelajak sari dadil odimlayotgan xalq ovozidir. Va biz bugun ana shu ovoz bilan faxrlanamiz. Chunki bu – O'zbekiston!

Habiba ALIYEVA,
Forish tumanidagi 15-maktab o'qituvchisi

Qutlov

MA'RIFATLI OLIM, YOZUVCHI, FAYLASUF

Muborak 80 yoshini qarshilayotgan fizik olim Mansurxon Toirov "Ma'rifat" gazetasiga begona emas. U gazetxonlarimiz "Nanotexnologiya – tiriklik tilsimining kaliti", "XXI asr ham fizika asri(mi?)", "Vaqt", "Fan, koinot va... taqdiri azal", "Onajonim", "Jahongiri bexonumon yurt edi bu", "Venger sayyohining so'nmas sevgisi", "Zamonamiz al-Xorazmiysi" (O'zbekiston Qahramoni Shavkat Ayupovga bag'ishlangan), "Majnun maktublari yoxud sevganmisiz, loaqal ko'rganmisiz oshiqlarning ko'zini?" kabi maqolalari orqali yaxshi tanishadi.

Bu inson menga ham begona emas. U sabab maqola, she'r yozishni boshlaganman. Bolaligimda uyimizning kitob javonidan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1995-yilgi sonini topib olgandim. Undagi "Vahiy qo'ng'iroqlari" maqolasini katta qiziqish bilan o'qib chiqqach maqola yakuniga qarasam, muallifi Mansurxon Toirov, ya'ni amakim ekanidan hayratga tushganman. O'sha lahzalarda shu inson mening amakim ekanligidan faxrlanib ketganman. Birgina shu maqola sabab bo'lib, menda ham yozuvchilikka, jurnalistlikka mehr uyg'ondi. Gazetalarini qadrlay boshladim.

Ikki kemandi boshini tutsang, oxir-oqibat suvga g'arq bo'lasan, deyilar. Bu hikmat ijodkor va olimlarga umuman taalluqli emas deb o'ylayman. Va professor Mansurxon Toirov timsolida buning haqiqatligini ko'raman. U – fizik olim, yozuvchi, shoir va faylasuf. Ijod va ilm boshini qovushtira olgan kam sonli ijodkorlardan biridir.

Yozuvchi va shoirlar bilan uchrashganimda ularga o'zimni "Men professor Mansurxon Toirovning jiyaniman" deb tanishtiraman. O'zbekiston xalq shoirlari Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov, Ahmadjon Meliboev, Muhammad Ali, Xurshid Davron, Abdusaid Ko'chimov, Ashurali Jo'rayev, Ulug'bek Hamdam, Salim Ashur, Luqmon Bo'rixon, Nurali Qobul, O'ktam Mirzayor, Abdurasul Jumaqulov, Rustam Musurmon, Muhiddin Rahim, Nodir Jonuzoq, Sirojiddin Rauf, Hamidulla Boltaboyev, Halim Sayid, Husan Karvonli, Botirjon Ergashev, Shuhrat Orif, Qo'chqor Norqobil, Xosiyat Rustamova, Shodmonqul Salom, Azamat Ziyo,

Asliddin Rustamov, Narzulla Jo'rayev, Qo'ng'iroq Sharipov kabi ijodkor va davlat arboblari bilan shunday tanishganman. Bu nom men uchun ijodkor va arboblari bilan munosabat o'rnatishimda ko'pri vazifasini bajaradi.

Bir kuni Milliy kutubxonada bo'lib o'tgan tadbirdan so'ng, taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboev va sevimli shoirimiz Bobur Bobomurodni manzillariga eltib qo'yadigan bo'ldim. Ahmadjon aka avtoullovning old o'rindig'iga, Bobur aka orqa o'rindiqqa joylashishdi. Yo'lma-yo'l suhbatlashib ketdik. O'zimni tanishtirib – "professor Mansurxon Toirovning jiyaniman" deyishim bilan Ahmadjon aka to'liqlanib: "Mansurxon aka zo'r yozadilar-da, "Vahiy qo'ng'iroqlari", "Dunyoni bilib bo'ladi yoxud anglaguvchilar uchun alomatlar", "Insonning so'nggi so'zi, u hali aytilgani yo'q"... deb bir nechta maqolasi nomini sanab ketdi. Ushbu maqolalar "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Ahmadjon Meliboev bosh muharrirlik qilgan yillari chop etilganligi uchun ham har birining nomini yoddan aytgandi. "Dunyoni bilib bo'ladi yoxud anglaguvchilar uchun alomatlar" maqolasi gazetada chop etilgach, buyuk shoirimiz Abdulla Oripov Ahmadjon akaga minnatdorlik bildirganidan ham xabarim bor.


Sevimli yozuvchimiz Ulug'bek Hamdam bilan ham ilk uchrashuvimizda o'zimning "jiyan" ekanligimni aytganimda Ulug'bek akaning yuz-ko'zida aks etgan sevinchni so'z bilan ta'riflay olmayman. "Bizning ustoz-ku Mansurxon aka" degan edi faxrlanib. O'sha kundan beri Ulug'bek aka bilan do'stimiz, aka-ukadekmiz.

Bu kabi voqealardan ko'plab misol keltirishim mumkin. Qisqasi, ijodkorlardan kim bo'lmasin "Mansurxon Toirovning jiyaniman" deb o'zimni tanishtirsam barchaning chehrasida iltiqlik zohir bo'ladi. Uning maqolalari, hikmatlarini yodga olishadi.

Bu insondan hayotimda ko'p saboq olganman va bugungi kunda ham saboq olishda davom etmoqdaman. Ayniqsa, barchaga ibrat bo'ladigan ota-onaga, ustozga nisbatan kuchli mehr va hurmat xislatlarini qalamga olishim lozim deb o'ylayman.

Amakimning buvijonim Tohiraxon onaga nisbatan mehri o'ta kuchli. Uyimiz yonma-yon bo'lgan yillari har kuni o'zi bir kosa issiq ovqatni "onajonimga" deb olib chiqardi. Dunyoni bir chekkaga surib qo'yib onajonisi bilan uzoq suhbat qurardi. Keyinchalik taqdir ekan, onasidan uzoqqa ko'chib ketdi. Shunda ham undan xabar olishni unutib qo'ymadi. Qayerda, qay manzilda bo'lsa ham onasini yodda tutdi. Bir yili sehrli diyori – Amerikaga borganida onasiga bag'ishlangan go'zal she'r bitib keldi. Ushbu she'rni Abdulhaqjon buvamga bag'ishlangan ehson dasturxonini ustida buvijonimga ham o'qib bergandim va "Uzoq yillar asqotmasin sandiqdagi oq bo'zingiz" satrlarini o'qib bo'lgach mening ham ko'zlarimga yosh kelgandi...

Qaysidir yili duradgorlik asbobini ko'tarib uyimizga keldi. Buvimning shkafi eshigi ta'mirtalab ekanligiga ko'zi tushgan ekan.



– Alisher, menga ko'maklashib turasan, onajonimning shkafi eshigini birgalikda ta'mirlab qo'yamiz, – dedi. O'shanda amaki va jiyan katta savob ishni yelkama-yelka turib bajargandik. Amakim hozir ham hovlimizga kelsa "daraxt ek, bog' yarat" deb savobli va ezgu ishlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi... "Bekor qolma, mehnat qil, qo'lingdan kitob tushmasin"... Qisqasi o'zi ham tinmaydi, biz yosh avlodni ham tindirmaydi.

Amakimning olimlik darajasiga erishishida otasi Abdulhaqjon Toirovning hissasi katta edi. Uning xotiralaridan ham buni anglab olish qiyin emas:


"O'quvchilik yillarim dadam rahmatli bilan ko'chadan o'tayotib ketmon ko'tarib olgan xushbichim, yoshi mendan kattaroq yigitni uchratdik. Otam u bilan juda samimiy, ixlos va e'tibor bilan gaplashdi. So'ng "Sen bu yigitni taniysanmi?" deb so'radi. "Yo'q" dedim. "U falonchining o'g'li, sening adashing, qara, qanday olijanob, kamtar. Ketmon ko'tarib ekiniga suv ochib kelyapti, o'zi aspirant!" degani hanuz qulog'im ostida jaranglab turadi. Ilm odamiga berilgan ana shu bir og'iz samimiy ta'rif mening butun umr ilm yo'lidan borishimga sabab bo'ldi. Afsuski, aspirant bo'lganimni ko'rish otamga nasib qilmagan ekan, oltimishga yetib-yetmay olamdan o'tdi. Uning "Odamlarga qo'lim bilan ko'p berolmadim, lekin yo'lim bilan ko'p berdim", degan so'zi meni butun hayot yo'lida savob sari chorlab turdi".

Shuningdek, bu insonning o'z ustoziga bo'lgan hurmati, hamkasbining yutug'ini o'z yutug'idek qabul qila olishi ibratlidir. Yodimda, 2000-yillar edi. Qo'lida bir necha surat va yana taniqli nomdagi jurnal bor edi. Jurnal va uning muqovasidagi odamning suratini Tohiraxon buvimga ko'rsatib: "Bu odam ustozim, taniqli fizik Jores Alfeyorov. Ustozim kechagina xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlandi", deb suyunchi oldi. Xuddi ushbu mashhur mukofot bilan o'zi taqdirlangandek ko'rindi yuz-ko'zidan. Buvim ham mehribon o'g'lini "o'zingga ham shunday yuksak mukofotlar nasib etsin" deya duo qildi.

Donolarning "Olim bo'lsang, olam seniki deganlari rost ekanligiga olim amakimning faoliyatini kuzatib, u bilan hamsuhbat bo'lib tushunib yetganman. "Ma'rifat" gazetasida chop etiladigan har bir yangi ijod namunalari maroq bilan o'qiyman.

So'zning indalloisi, "Ma'rifat" gazetasining ma'rifatli olimi Mansurxon Toirovga 80 yosh muborak bo'lsin! Jonajon gazetamiz "Ma'rifat" bilan hamkorliklari davomli bo'lsin!

Alisher TOIROV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



Suratda: professor Mansurxon Toirov ustoz,
Nobel mukofoti sohibi Jores Alfeyorov bilan.

Ranglar jilosi

BAHORNING QAYTISHI

Bog' qo'ynida ikki dugona bir-biriga o'sma qo'yar, chaman ichra ikki singil do'ppisiga gul qistirilgan opaning yelkasiga bosh qo'yar, o'n oltiga to'lgan qizning bahoriy kayfiyati va uning chap yonida sayrayotgan qush bahorni yuqtirar, qirq kokiliga jamalak taqqan "Osiyo go'zali" mag'rur qarab turardi. Bir hurliqo atlas ko'ylakda bahorga jo'rovozi bo'lib dutorda "Sharq taronasi"ni chertar, yana bir hurliqo yangi tug'ilgan qo'zichoqni tizzasiga olib erkalar, bir hurliqo esa moviy va harir ko'ylakda qarshisidagi atirgullarga termulib turar va yana bir hurliqo esa atlas ko'ylakda qo'lida chelak bilan darvozadan tashqari mo'ralardi.

Suvda chizilgan "Gullar", moy-bo'yqda chizilgan "Moychechak", "Atirgullar", "Oq atirgul", "Guldasta", "Atirgul guldastasi", "Orzu guli", "Kuz gullari", "Qilichgul", "Guldondagi gullar" – "Novdalarni bezagan g'unchalar" kabi devorda osilib turardi.

Boshida do'ppi, yo'l-yo'l qizil atlas ko'ylakda, tugilgan sochlarini yelkasiga tashlab, katta-katta ko'zlarini quvonch yoritib, uzun kipriklarini pipirratib, istarasi issiq bir go'zal ayol bu gulshan ichida alohida gul bo'lib turardi. Chehrasi guldek yonib turgan bu ayol ranglar ma'shug'i, ranglar oshig'i – musavvir Gulchehra Rahimova!

U o'zining "Navro'z" deb atalgan shaxsiy ko'rgazmasini Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabining ko'rgazmalar zalida Navro'z arafasi ochdi.



Gulchehrra mo'yqalam tutqazgan, qalbiga hayajon solgan, suratlariga jilo va sehr yoygan, ko'zlariga ranglarni o'zgalaridan o'zgacharoq ko'rish uchun ilohiy nur bergan bu avvalo Xudo... rasm chizishga bo'lgan ishtiyoq, rassomlikka muhabbat. Uning ko'zlariga butun borliq ranglar jilosi bo'lib ko'rinadi. U molbert yonidan ketgisi kelmaydi, hayot va tabiat ranglarini, inson manzaralarini matoga ko'chirishga oshiqadi. Kapalak qanotidagi nuqtadan egnidagi shohi atlasgacha uning "palitra"si. Ranglarni shulardan ola biladi. Falak uning iste'dodini ta'min etgan bo'lsa, go'zal dunyo, beshafqat hayot, jilvagar tabiat Gulchehraning tasavvurini boyitib keldi. Inson qiyofalari qalbiga cho'g' soldi. Gullar o'ziga maftun etdi. U hayajonga to'la qalbini kartinalarga ko'chirdi.

Uyg'urlar oshxonasida meni Gulchehra bilan mashhur rassom Lekim Ibrohimov tanishtirgan. Gulchehra o'ris tilida bemalol, o'zbek tilida esa so'zlarni alohida talaffuz bilan dona-dona qilib so'zlardi. "Ya Gulchexra, xudojnitsa" derdi-yu, "musavvirman" degan so'zni topishga qiynalardi. Uning raqamini tilponim yodnomasiga "xudojnitsa" emas, "rassomka" deb bitib qo'ydim. Men rasm ish-qivozi, internetda chizgan suratlarim bor. Rasmdagi tuyg'ular fotonusxada bilin-

maydi. Biroq bu rasmlar nimasi bilandir meni o'ziga rom etardi. "Navro'z" ko'rgazmasining ochilish marosimiga borgach, ko'rgazmada "Suv bo'yida", "Qiz kayfiyati", "Bog'bon", "Shlyapali qiz", "Kandakor Omon Aziz", "Xorazmlik", "Tarlon", "Ona baxti", "Qariya", "Ota orzusi", "Turkiston malikasi", "Issiq non", "Uyg'ur qizi", "Chobuksuvor", "Mening umidim", "Cho'pon", "Tog'limakon sahrosida", "Bozordan keyin", "Nomsiz", "Buxoro g'azali", "Yaylovda", "Puma", "Sori pishak", "Aks", "Tulpor", "Surxon suluvi", "Lazgi", "Ismigul" kabi asarlarini tomosha qilar ekanim tilponim yodnomasidagi "Rassomka" so'zini "Gulchehra – ulug' rassom" so'ziga o'zgartirdim.

Uning kartinalari sof o'zbekcha gapirardi. Uning ijodida kam uchraydigan hatto sovuq ranglar ham kartinalariga taft berardi. Yorqin ranglar jilosiga san'at muxlislari asir bo'lib qolardi. Rasmlari o'zbekcha gapirar, ranglari o'zbekcha tovlanardi. Ko'p ko'rgazmalarda Yevropa maktabi... misol uchun Modilyani tilida, Repin tilida ranglar, shakllar so'zlasa... Gulchehrada o'zbek tilida so'zlar edi ranglar. Rassomchilikka ixtisoslashgan maktab va universitet darsliklari bizda asosan Yevropa maktabi. Bu maktabni yorib chiqib, o'zini anglash rassom uchun qiyin. Rassom o'z yuragini chiza olsagina, u ulug' rassom. Gulchehra o'rischa gapirsa ham uning yuragi o'zbekcha urib turardi, u shuni chiza olgan edi. U Yevropa maktabini yorib chiqa olgan musavvir. Sof o'zbekona tasvirlar. O'z mo'yqalamiga ega. Rasmlarin boshlashga hatto ko'mir, chizgich, to'sh, qora qalam kabi qoralama ham tortmagan. Palitrada "o'zbekona" ranglarni tanlab to'kkan. Ehtimol, atlas tur-laridan olgan, ehtimol kamalakdan, ehtimol shu muqaddas Vatanda o'sadigan gul-u chechaklardan bu ranglarni saralab



olgan. Ilhom toshib kelganday qo'q-qisidan mo'yqalamning o'zida, rangning o'zida ishlay boshlagan. Qadim ajdodlarimiz toshga rasmlarni o'yib chizganday, ranglarni "o'ymakorlik" bilan mato uzra ishlatgan. Inson manzaralarini "kandakorlik" bilan chiza olgan. U chizgan asarlarga termulib tursang, ranglar raqs tushayotgandek. "Nega sizda ranglar raqs tushadi?!" deganimda, u "Kuy yangrayotgan bo'ladi, kuy xolstga urilib qaytayotgan bo'ladi, bir qo'limda kistichka, rasm chizayotgan bo'ladi, bir qo'lim mana bunday o'ynayotgan bo'ladi. Men raqs tushib rasm chizaman", deya bir qo'lini xirom bilan o'ynatgan edi. O'shanda negadir xayolimga Jaloliddin Rumiyning raqs(zikr) tushishi kelgandi. Bir qo'li falakka (Xudoga) cho'zilgan, bir qo'li yerga(raiyatga) cho'zilib raqs tushgan ekanlar. Xalqning armonlarini, orzularini, g'am-u dardlarini o'rtadagi elchiday Xudoga yetkazish ramzida... Gulchehra bolalikda rasm chizish bilan birga raqsqa ham qiziqqan. Yoshlikdagi orzularidan biri raqqosa bo'lish. Ota-onasi qarshilik qilgach, rassomlikni tanlagan. Uning yoshlikdagi orzulari-yu, ulg'aygandagi armonlari – u tanlagan ranglarda sho'x-shodon raqsqa tushardi. U o'zini shunday ifoda qiladi.

(Davomi 16-betda.)

Yurakka chizilgan bitik

Sen – sukut ichida tug'ilgan ovoz,
Men – o'sha ovozda yashagan jimlik.
O'rtada vaqt emas – faqat ma'no bor,
Va shu ma'no – yurakka yozilgan bitik.
Ko'zlaring so'zlamas – haqiqat yo'li,
Men – o'sha yo'llarda adashgan savol.
Bir boqishing – oh... parchalar bo'lib,
Bir sukuting – umrimga bitilgan zavol.
Sen bor joyda hatto iztirob tirik,
Yo'qliging – borliqni qiladi sarob.
Sevgi – bu his emas, bu ichki idrok,
Men seni angladim, aylama xarob.
Agar bir kun yo'qolsang ma'nolar ichra,
Vaqt ham o'z yo'lidan adashadi, bil.
Chunki biz – bir-birin o'qigan sukut,
Va shu sukut bizning umrboqiy til.

E'zoza NAMOZOVA

Qo'shrabot tumani

Tug'yon

Ona, go'zal eding, chiroyli eding,
Seni ayamadi yillar suroni.
Kimnidir o'qitmoq, kimni uylamoq, –
Dunyoning tashvishi yelkangda edi.

Besh o'g'ling besh azim chinor bo'libdi,
Besh qizing o'ziga qo'rg'on quribdi.
Yana ne tashvishing, yana ne g'aming,
Bir kunni o'zingga atagin, ona!

Farishtam, seni ham o'ylovchi bormi,
Qalbingga bir bora quloq tutguvchi?
Beorom o'tkazgan tunlaring haqin,
Qanday ado etay, ayt, onajonim?

Jannatning ifori sendan taralar,
Mehrning bulog'i sendan yaralar.
Sen kabi fidoyi onalar borki,
Sakkiz jannatingdan birin saralar.

ONA

Ajib zamonaning ajib ishlari,
Qalbimni qiynaydi noyob hislari.
Bir ko'nglim oxirat, bir ko'nglim dunyo,
Meni o'z izmingga solmagin, dunyo.

Yillar odimlaydi birpas kutmasdan,
Bolalar yig'laydi ona quchmasdan,
Allalar yangrasin beshiklaridan,
Parilar kirsinlar eshiklaridan.

Qalbinga in qursin farishtalari,
Dillarni bog'lasin jon rishtalari,
Ollohim, aziz qil farzandlarimni,
Iymondan ayirma dilbandlarimni.

Sarvinov QAHHOROVA,
Qo'shrabot tumanidagi
35-maktabning
boshlang'ich sinf
o'qituvchisi



Ibrat

XIZIR KO‘RGAN KAVKAZ XALQI

Bugun dunyo olimlari va faylasuflari bir masala haqida tobora ko‘proq gapirmoqda: texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda, insoniyat moddiy jihatdan boyigani sari, insonlar o‘rtasidagi ishonch, hamjihatlik va ma‘naviy bog‘liqlik kamayib bormoqda. Jamiyatlarni bir butun qilib ushlab turuvchi ijtimoiy kapital zaiflashmoqda, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma‘naviy meros va qadriyatlar zanjiri – vorisiylik susaymoqda. Ana shunday bir paytda Kavkazda sodir bo‘lgan voqea nafaqat bir bolaning taqdiri, balki butun insoniyat uchun muhim ijtimoiy hodisaga aylandi.

2026-yil 15-iyun kuni Ingushetiya Respublikasida sakkiz yoshli Xizir Derbichev ikki do‘sti bilan Sunja daryosi bo‘yida sayr qilib yurgan vaqtda ulardan biri – Adam suvga tushib ketadi. Xizir yonidagi ikkinchi do‘sti Muhammadni qutqarishga chorlaydi. Muhammad daryo oqimi shiddatli ekanligini aytib kattalarni chaqirib kelish kerakligini ta‘kidlashiga qaramay, Xizir “Axir biz erkakmiz-ku, do‘stimizni qutqarishimiz kerak!” deydi va bir lahza ham ikkilanmay o‘zini suvga otadi. Xizir dahshatli oqimda do‘sti Adamni qirg‘oqqa tortadi va daraxt ildizidan ushlashiga ko‘maklashadi, ammo daryoning kuchli oqimi Xizirni olib ketadi. Qirg‘oqda qolgan Muhammad qishloqdan kattalarni chaqirib kelganda Adam daraxt tomiridan ushlab turgan, Xizir esa suv domiga g‘arq bo‘lgan edi. Shundan keyin butun Kavkaz bo‘ylab misli ko‘rilmagan birdamlik namoyon bo‘ldi. Mintaqaning turli hududlaridan kelgan minglab ko‘ngillilar va qutqaruvchilar sakkiz kun davomi-

da bolani qidirdi. Nihoyat, 22-iyun kuni uning jasadini topildi. Janoza marosimida minglab insonlar qatnashdi. Xizir o‘z do‘stini qutqarish uchun jonini fido qilgan haqiqiy qahramon sifatida so‘nggi manzilga kuzatildi.

Bu voqea ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan juda muhim ma‘no kasb etadi. Chunki bu yerda bir vaqtning o‘zida ikki qadriyat namoyon bo‘ldi: ijtimoiy kapital va vorisiylik.

Birinchidan, sakkiz yoshli bolaning do‘stini qutqarish uchun o‘zini xavfga qo‘yishi ma‘naviy vorisiylikning tirik ekanidan dalolat beradi. Mardlik, oriyat, sadoqat va fidoyilik kabi qadriyatlar hali ham avloddan avlodga o‘tib kelyotganini anglatadi.

Ikkinchidan, bir bolaning taqdiri uchun minglab insonlarning safarbar bo‘lishi jamiyatda ishonch, hamdardlik va birodarlik tuyg‘ulari hali ham kuchli ekanini ko‘rsatdi. Demak, ijtimoiy kapital to‘liq yemirilmagan. Aksincha, zarur pallada u

insonlarni umumiy maqsad atrofida birlashtira oladi. Kavkaz xalqlarida namoyon bo‘lgan ijtimoiy kapitalning quvvatidan zamonaviy jamiyatlar farzand tarbiyasi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda ibrat olishi, jamiyat kelajagini kafolatlovchi eng ishonchli kuch sifatida foydalaniishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ijtimoiy hodisadan bir nechta muhim xulosa chiqarish mumkin.

Avvalo, jamiyatning haqiqiy boyligi iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki insonlar o‘rtasidagi ishonch va hamjihatlikdir.

Ikkinchidan, tarbiyaning samarasi insonning og‘ir vaziyatda qabul qilgan axloqiy qarorida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, qahramonlik yosh bilan emas, qalbning buyukligi bilan o‘lchanadi.

To‘rtinchidan, jamiyatda umumiy qadriyatlar saqlanib qolsa, har qanday sinov insonlarni yanada birlashtirishi mumkin.

Nihoyat, bu voqea bizga bir haqiqatni eslatadi: inson o‘zining insoniyligini boshqalarning boshiga kulfat tushganda dardiga befarq bo‘lmaganida namoyon etadi.

O‘zbek xalqida “bolaning begonasi bo‘lmaydi” degan hikmat bor. Shu bois, Xizirning fojiasi faqat uning ota-onasi yoki Ingushetiya xalqi dardi emas. Bu dardni har bir ota-ona, har bir inson yuragi bilan his etadi. Chunki farzand dardi millat tanlamaydi, chegara bilmaydi.

Xizir qisqa umr ko‘rdi. Ammo uning jasorati uzoq yashaydi. Chunki inson-

lar yillar bilan emas, qoldirgan ma‘naviy merosi bilan umr ko‘radi. Xizir ana shunday insonlardan biri bo‘lib, qardosh xalqlar tafakkurida mangu qoldi. Ishonamanki, Xizir haqida dostonlar bitilib, uning nomi abadiylashtiriladi, jasorati o‘zi kabi mard va jasur o‘g‘lonlarni tarbiyalashda xizmat qiladi.

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlamoqchi-man, o‘zbek xalqida “Xizir ko‘rgan” degan hikmat bor. Bu ibora odatda baxt, baraka va xayrga, insonlar mehri va duosiga musharraf bo‘lgan kishilar haqida aytiladi. Xalq tasavvurida Xizir alayhissalom yo‘li yo‘qolganga yo‘l ko‘rsatadi, qiynalganga madad beradi, ezgulikka xizmat qiladi. Shuning uchun ham biror inson haqida “Xizir ko‘rgan ekan” deyilsa, uning taqdiriga yaxshilik, odamlarning muhabbati va Yaratganning marhamati yor bo‘lgani anglashiladi.

Kavkaz xalqi (ingush, chechen, dog‘istonlik, qabardin va bolqorlar, osetin, gruzin va hatto Markaziy Osiyoliklar ham ishtirok etganligi haqida ma‘lumotlar berildi) Xizirning jasadini izladi va o‘z ichidagi Xizirni topdi. Ular daryo bo‘ylab qo‘l ushlab, nafaqat bir bolani, balki insoniylikning eng yuksak fazilatlarini qidirishdi. Va ular topgan narsa faqat Xizirning jasadidir emas edi. Ular jasoratni topishdi! Sadoqatni topishdi! Birodarlikni topishdi! Insonning inson uchun jonini fido qilishga qodir ekanini yana bir bor isbotlashdi!

Joying jannatlarda bo‘lsin, jasur ingush o‘g‘loni! Sen bir do‘stingni qutqarding. Shu bilan birga, minglab insonlarga insoniylik, sadoqat va fidoyilikning haqiqiy ma‘nosini ham eslatib ketding.

Muzaffar NORQOBILOV

Termiz shahri

Rashidov Jasur G‘ayrat o‘g‘lining 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar hamda 05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi (texnika fanlari) tutash ixtisosliklari bo‘yicha “Favqulodda vaziyatlarga bardoshli kam uglerodli binolarning ko‘p qatlamli to‘siq konstruksiyalarini loyihalashning ilmiy-texnik asoslari va metodologiyasini takomillashtirish”(Совершенствование научно-технических основ и методологии проектирования многослойных ограждающих конструкций низкоуглеродных зданий, устойчивых к чрезвычайным ситуациям) mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.

Tel/faks: (90) 372-71-94, (71) 234-15-11; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Jurayev Farxod Niyozovichning 13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Termodinamika va issiqlik texnikasi fanini o‘qitish metodikasini nostandart topshiriqlar asosida takomillashtirish (texnika oliy ta‘lim muassasalari misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shohko‘chasi, 76-“v” uy.

Tel/faks: (79) 223-04-40, 223-49-66; e-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com

O‘roqboyev Ollayor Bolbek o‘g‘lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo‘yicha “Ko‘pchitilgan vermikulit asosida yengil betonning optimal tarkibini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Farg‘ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.19.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 150107, Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy.

Tel/faks: (73) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz

Balgayeva Muxayyo Abdisamatovnaning 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, binolar va inshootlar ixtisosligi bo‘yicha “Konstruktiv formasini o‘zgartirish hisobiga katta ravoqli po‘lat fermalarni optimallashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/26.01.2023.T.109.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 9-iyul kuni 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko‘chasi, 70-uy.

Tel/faks: (66) 237-15-93, 237-26-30; e-mail: samdaqu@edu.uz

Shamurotova Soxiba Mustafakulovnaning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha “Yassi quyosh suv qizdirish kollektorining energetik samaradorligini oshirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Qulmamatov Oybek Amonovichning 10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Og‘zaki nutq janrlarining lingvomadaniy tadqiqi (ingliz tilidagi dozens va o‘zbek tilidagi askiya misolida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01. Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 9-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi,

G-“9”A mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumya1@exat.uz

Mamatkulova Sayyara Gulyamovnaning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha “Rekuperativ issiqlik almashtirgichli bioenergetik qurilmalar issiqlik jarayonlarini modellash-tirish va tadqiq qilish” (Моделирование и исследование тепловых процессов в биоэнергетических установках с рекуперативным теплообменником) mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

O‘lmasov Quadrat Norqul o‘g‘lining 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha “Quyosh fotopanellari-ni sirtini avtomatik tozalash tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining(ixtiro patenti asosidagi taqdimoti) himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz



BAHORNING QAYTISHI



(Davomi. Boshi 14-betda.)

U o'z imzosiga, o'ziga xos uslubga, yorug' lirikaga, yorqin individuallikka, mukammal mahoratga ega musavvir. Gulchehraning asarlari quvonch nurlari bilan yo'g'rilgan. U dunyo qiyofasini raqs tushayotgan manzarada ko'radi. Sokin suratlarida ham qandaydir shabada raqsga tushayotgandek, u chizgan gullarning barglarini ohista, shivirlab o'ynayotgandek bo'ladi. Ijodining mavzulari, obrazlari rang-barang. Kartinalarida bahor nafasi, go'zallikni umumlash-tirish va ayollarga xos joziba seziladi. Portretlarida benihoya nafislik bor. Ayol obrazi yaratilgan portretlarining aksariyati avtoportretday shahlo ko'zli qizning obrazi bilan birlashib ketgan. Ayol tanasining plastikasi, harakatlari, holatlari hassoslik bilan ishlangani seziladi.


Musavvirning qiyofasi va qalbini ayol obrazi yaratilgan portretlar ichidan oson topib olasiz. O'ta noziklik va nafasot bilan ishlangan kartinalar orqali Gulchehraning kim ekanligini taniy boshlaysiz. Ezgulik, o'zbekona qadriyatlar, sevgi va go'zallik ufurib turgan rasmlar orqali musavvirni kashf qilasiz. Hayajon, samimiyat, jo'shqinlik va ilhom bilan chizilgan navoli asarlari san'at ixlosmandlari diqqatini tez tortadi. Atrofida-gi odamlar, atrofidagi manzaralar, bosib o'tayotgan yo'llari, yashayotgan zamoni kartinalariga bosh mavzu.

Musavvir Gulchehra Rahimova 1973-yili Toshkent shahrida o'qituvchilar oilasida tug'ilgan. U ayni kunlarda "Navro'z" ko'rgazmasi ochilgan ushbu Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabini 1995-yili tamomlagan. O'sha davrlarda

yosh o'quvchi bu qizni ustozlari "katta rassom" deya e'tirof etishgan. Favqulodda iste'dod egasi Gulchehra 2001-yili Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining bakalavr bosqichini tamomlaydi. 2003-yili ushbu universitetning magistraturasini tugatgan.

"Talabalik davrlarida zo'r chizardi. Hammamizdan zo'r chizardi. Keyin yo'qolib qoldi..." kabi uning "iste'dodi so'nganidan" mujda berar mish-mishlar ham qulog'imga chalindi. Aslida esa Xudo berganin bandasi ololmaydi. Chin iste'dod ustidan tuproq tortilsa ham, tuproqni yorib chiqqan chechakday o'zi xohlagan payti bo'y ko'rsatadi. U molbertini yelkalab olis-olislarga ketgan edi. Rangin bo'yoqlari bilan yana qaytuvchi bahorday ketgan edi. U 2008-yili O'ri-siyaning Moskop shahridagi Markaziy rassomlar uyida shaxsiy ko'rgazmasini ochadi. 2009-yili esa Germaniyada shaxsiy ko'rgazmasini ochadi. Yana O'zbekistonga qaytib 2015-yili O'zbekiston badiiy akademiyasida, 2016-va 2021-yillari Toshkent fotosuratlar uyida shaxsiy ko'rgazmalarini ochib asarlarini o'z muxlislarga yoyinlagan.

Gulchehra Rahimovanning asarlari Angliya, Ispaniya, AQSH, Rossiya, Fransiya va Germaniyadagi shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi. Shuningdek, Toshkentdagi "Turon" sanatoriysini ham bezab turibdi. O'zbek rangtasvir san'atiga gavhar bo'lib qo'shilgan kartinalarida asosan Vatan manzaralari, shu Vatan farzandlarining turli obrazlari bo'y ko'rsatgan. Uning kartinalari dunyoning istalgan burchagiga ilinsa ham sharqona nafas, turkona tuyg'ular yarq etib ko'zga tashlanadi. Ajralib turadi. O'zbekistondan xabari bor istal-



gan muxlis kartinalarni ko'rib... "E, bu o'sha-o'sha mamlakat-ku...", deya oladi. U o'z ijodini go'yo Vatan xizmatiga bag'ishlaganday... Gulchehra insonlar obrazini, ularning ruhiy kechinmalarini teran anglab nafis tasvirley oladigan musavvir. Inja fahmli, yuksak idrokli, nozikta'b, o'ta hayajonli va ta'sirchan, tez sezuvchan, ranglarni darrov ilg'ay olish, ko'ra olish qobiliyatiga ega. Xayolida charx urayotgan o'y-fikrlarini, qalbida tug'yon urayotgan orzu-umidlarni yorqin ranglarda kartinalarga san'atkorona ko'chira olgan.

"Navro'z" nomli ko'rgazmasining ochilish marosimida suratlarini hayrat bilan tomosha qilardim. Bu yerda Gulchehra Rahimovanning yor-do'stlari, rangtasvir ustalari, shogirdlari yig'ilgan edi. Lutfiya Mirzayeva, Minhojiddin Ubaydullayev, Maryam Turfoniy, Mag'firat Shojalilovalar musavvirni ko'rgazma bilan qutlashga oshiqardidi. Badiiy akademiyadan Ibrohim Valixojayev, Kamoliddin Behzod nomidagi institut o'qituvchilaridan Shuhrat Abdumalikov, Gulchehraning ustozlaridan Obid Toshmuhammedov, maktab direktori Umid Hakimov va uning jamoasi Gulchehrani samimiy qutlardidi... So'z berishdi. Hayajon va rassomlar nigo-hi yelkamdan bosardi. Men bir muxlis, ular qarshisida ne so'zlashni bilmasdim. Taxminan, "Biroz kechikkan bahor qaytdi. Bahor Benkov nomidagi maktabning ikkinchi qavatidan boshlandi. Guldastalar tutdi. Yorug' ranglar ulashdi... Barchangizga bahorday "rassom" muborak bo'lsin..." dedim.

Boshqa nima ham derdim. Musavvir bahorga o'xshardi. Bahorda barcha yorug' ranglar mujassam. Bahor va musavvir go'zallik shaydolariga zavqu shavq ulashdi, ularni o'z jozibasiga tortdi, yorqin ranglarga oshufla etdi, sehladi, maftun ayladi, mahliyo etdi. Ko'ngillarni yorug'likka yetakladi.

Talant TOLERANT



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6152. Tiraji 6200.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mual-lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.